

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY, TA'LIM FAN VA
INNOVATSIYA VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 379.835

XOLMURZAEV SOBIR NAZAROVICH


SURXONDARYO VILOYATI EKOTURIZM
RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY
SAMARADORLIK YO'LLARI

Mutaxassislik: 71010401 - Turizm (ziyosat turizmi)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar



DSc., prof. Norchayev A.N.

TERMIZ - 2023

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2021-yil 3 dekabrda № 54-T/M sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti "Turizm va mexmonxona xo'jaligi" kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya

manzilining



QR-kodi:

Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (/ raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko'chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar:

A handwritten signature in black ink, appearing to be 'A.N. Norchayev', written over a horizontal line.


prof. A.N. Norchayev

Kafedra mudiri:

A handwritten signature in black ink, appearing to be 'O'.D. Rajapov', written over a horizontal line.

dots. O'.D. Rajapov

Magistratura bo'limi boshlig'i:



PhD. A.B. Narbayev

**71010401 - Turizm (ziyorat turizmi) mutaxassisligi magistranti,
Xolmurzayev Sobir Nazarovichning “Surxondaryo viloyati
ekoturizm resurslaridan foydalanishning iqtisodiy, samaradorlik
yo‘llari“ mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi**

ANNOTATSIYASI

Tayanch so‘zlar: Ekologik turizm resurslar, ekomarshrut mahalliy aholi, daromad, tabiatni muxofaza qilish, rayyonlashtirish rekreasya iqtisodiy xususiyatlari, ish o‘rinlarini yaratishi, mahalliyashtirish, infrastruktura.

Tadqiqot ob‘ektlari: Surxondaryo viloyati ekologik turizm maskanlari.

Ishning maqsadi: Surxondaryo viloyati ekologik turizm salohiyatini oshirish mumkin bo‘lgan asosiy omillarni aniqlash. Turizm geografiyasini kengaytirib, turmarshrutlarini ko‘paytirish yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqot ishini olib borishda kuzatish, iqtisodiy tahlili, qiyosiy va statistik usullardan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning yangiligi: Surxondaryo viloyati ekologik turizm maskanlaridan foydalanish samaradorligini oshirish taklifi asoslab berildi; Viloyati ekoturizm resurslaridan foydalanishda infrastrukturaning tarkibi va vazifalarini, tizimida uzluksiz ishlashini ta‘minlash maqsadga muvofiqligi asoslandi. Surxondaryo viloyat ekoturizm resurslaridan foydalanishda rayyonlashtirish xususiyatlari maqsadga muvofiqligi asoslab berildi. Viloyat iqtisodiyotni rivojlantirish, mahalliy aholini ish bilan ta‘minlash, ayniqsa qishloq aholisi bandligini ta‘minlab daromadlarini oshirishda ekoturizm resurslaridan foydalanishni oshirish yo‘nalishlari ishlab chiqildi. Viloyat ekoturizm resurslariga turmarshrutlari ishlab chiqishda, turizm infrastrukturasini holati tahlili va uni yaxshilash chora – tadbir rejasi, ekoturizm mahsulotlariga bo‘lgan talabning mavsumiyligini optimallashtirish taklifi asoslandi. Ekoturizm resurslardan samarali foydalanishda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va mahalliyashtirish dasturining ahamiyati asoslab berildi.

Amaliy ahamiyati: Ekologik turizm maskanlariga bo'lgan talabning yildan yilga ortib borayotganligi sababli tabiiy holatdagi rekreatsiya resurslarini tabiiy zahiralarni aniqlash a'lohida ahamiyat kasb etadi.

Tatbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi: tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan xulosa va takliflar Surxondaryo viloyati ekoturiz resurslaridan foydalanishda korxonalar va muassasalarning turmarshrutlari ishlab chiqib, turmahsulotlari sotib iqtisodiy, samaradorliklarni oshirish bo'yicha foydalanishga tavsiya etiladi .

Qo'llanish sohasi: O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan turfirmalar va turizm majmualari.

71010401 - master's thesis of Kholmurzayev Sabir Nazarovich, master's student of tourism (pilgrimage tourism) on the topic "Economic and efficient ways of using ecotourism resources of Surkhandarya region"

ANNATATION

Key words: Eco-tourism resources, eco-route, local population, income, nature protection, zoning, recreational economic features, job creation, localization, infrastructure.

Research objects: ecological tourism places of Surkhandarya region.

The purpose of the work: to identify the main factors that can increase the potential of environmental tourism in the Surkhandarya region. Tourism is to expand the geography and develop ways to increase tour routes.

Research methods: observation, economic analysis, comparative and statistical methods were used in the research work.

The obtained results and their novelty: the proposal to increase the efficiency of the use of ecological tourism places of the Surkhandarya region was substantiated; The expediency of ensuring the structure and functions of the infrastructure and continuous operation of the system in the use of regional ecotourism resources was justified. The appropriateness of planning features in the use of ecotourism resources of Surkhandarya region was justified. Directions for increasing the use of ecotourism resources for the development of the regional economy, providing employment to the local population, and especially increasing the income of the rural population have been developed. In the development of tour routes to regional ecotourism resources, the analysis of the state of tourism infrastructure and the action plan for its improvement, the proposal to optimize the seasonality of the demand for ecotourism products were based. The importance of the program for the development and localization of private entrepreneurship in the effective use of ecotourism resources was justified.

Practical importance: Due to the increasing demand for ecological tourism places, it is of great importance to determine the natural reserves of recreation resources in their natural state.

Level of implementation and economic efficiency: the conclusions and proposals developed during the research are recommended to be used by enterprises and institutions in the use of ecotourism resources of Surkhondarya region to develop tour routes, purchase tourism products, and increase economic and efficiency.

Field of application: travel agencies and tourism complexes operating in the Republic of Uzbekistan

**Mavzu: Surxondaryo viloyati ekoturizm resurslaridan
foydalanishning iqtisodiy, samaradorlik yo‘llari**

MUNDARIJA		Bet
	KIRISH	8
I-BOB.	EKOTURIZM RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	15
1.1-§.	Ekoturizm resurslarining tasniflanishi va turlari	15
1.2-§.	Ekoturizm resurslarining turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati	27
1.3-§.	Turizm infratuzilmasini shakllantirishda ekoturistik resurslarning o‘rni	34
	Birinchi bob bo‘yicha xulosa	40
II-BOB.	SURXONDARYO VILOYATIDA EKOTURIZM RESURSLARIDAN FOYDALANISH SHART-SHAROITLARI VA HOLATI	42
2.1-§	Surxondaryo viloyatida turizm rivojlanishining iqtisodiy tahlili	42
2.2-§	Surxondaryo viloyatidagi ekoturistik ob‘ektlarning holati	46
2.3-§	Surxondaryo viloyatida ekoturistik rayonlashtirish jarayonlari	51
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa	54
III-BOB.	SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLAN-TIRISHDA EKOTURIZM RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI.	56
3.1-§	Ekoturizm rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda davlat-xususiy sherikchiligi imkoniyatlaridan foydalanish	56
3.2-§	Ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishda resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari	61
3.3-§	Ekoturizm marshrutlarni ishlab chiqishda turistlar talabi bo‘yicha mavsumiylikni optimallashtirish yo‘llari	67
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosa	71
	XULOSA VA TAKLIFLAR	73
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	77
	ILOVALAR	82

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va unung dolzarbliigi: Bugungi kunda jahon aholisining sayohlik sohasiga bo'lgan qiziqishlari yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa turizmning eng jozibador turi – ekoturizmga bo'lgan munosabatlarning tubdan o'zgarishga olib kelmoqda. Yilning to'rt faslida tabiiyat qo'ynida madaniy dam olishi miqdorining kundan-kunga oshishi, mahalliy aholi orasida ish o'rni yaratilishi, undan olinayotgan daromodlar miqdorining doimiy o'sishiga, moliyaviy jarayonlar faollashuviga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatayotganidan dalolat beradi.

Butunjahon sayyohlik tashkilotining (JST) ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilda COVID-19 pandemiyasidan oldingi davrda ushbu tarmoqda 292 milliondan ziyod ish o'rni yaratilgan bo'lib, ularning jahon iqtisodiyotidagi hisyasi 7.6 trln, dollarni, YaIMdagi ulishi esa 7,0 foizini tashkil etgan.¹ⁱ

Yuzaga kelgan COVID-19 pandemiyasi oqibatida turizm sohasi ham “2022-2021 yillarda 2020 yilga nisbatan 4 foizga o'sganligi, jahon turizmining bevosita yalpi mahsuloti 19 foizga oshib 1,9 trillion dollarga yetganligiga qaramasdan, COVID-19 pandemiyasidan oldingi davrga nisbatan 72 foizga pastligicha qolayotganligi”²

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “turizm industriyasini jadal rivojlantirish, yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish”³ vazifasi qo'yilgan.

Turizmni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish orqali jahondagi yirik mintaqalar yalpi hududiy mahsulotida turizm xizmatlarining ulushini oshirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatmoqda.

So'ngi yillarda, Respublikamizda turizmni rivojlantirish orqali xorijlik turistlar oqimini ko'paytirish, ichki turizmga mahalliy aholini kengroq jalb qilish,

¹ Travel & tourism global economic impact & issues 2019. World World Tourism Statistics 2022

² www.unwto.org/un-tourism-news-future-edition-2022

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони \\www.lex.uz

turizm xizmatlari eksportini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, turistik resurslardan maqsadli foydalangan holda xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirimoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19 sentyabrda “Ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari” yuzasidan videoselektor yig‘ilishi ma‘ruzasida sohani mavjud salohiyatidan unimli foydalanish bo‘yicha alohida to‘g‘talib o‘tgan.

Davlatimiz rahbari tomonidan bu yili turizm uchun pandemiyadan keyin qayta tiklanish davri boshlanganini ta‘kidlab. 2022 yil sentyabrgacha bo‘lgan davrda yurtimizga kelgan xorijiy turistlar soni 2021 yilga nisbatan 3 baravarga ko‘payib, 3,1 million nafarni tashkil etgani; 2022 yil boshidan turizm eksporti hajmi 926 million dollar bo‘lib (2019 yil davomida 951 million dollar bo‘lgan) yurtimizga kelgan mehmonlarning sayohati o‘rtacha 4-5 kungacha, sarflagan mablag‘i 305 dollargacha ko‘paygani, (bu 2019 yilda o‘rtacha 3 kunni tashkil etib, ular 195 dollar sarflagan); Ichki sayohat qiluvchilar soni ham o‘tgan yilga nisbatan 3,5 baravarga o‘sib, 7,5 million nafarni tashkil qilgani o‘z maruzalarida alohida ta‘kidlab o‘tgan. Turizmda topilgan daromadning 30 foizi odamlarning qo‘liga ish haqi bo‘lib borishi, sanoatda va boshqa tarmoqlarda bu 10 foizdan oshmasligini ham ko‘rsatib o‘tilgan. Turizm sohasida yaratilgan bitta ish o‘rni turdosh tarmoqlarda qo‘shimcha ikkita ish o‘rni paydo bo‘lishiga turtki berishi e‘trof etilgani ko‘rsatadi.⁴

Jahon amaliyotida turizm va ekologik turizmni rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanib kelajak avlodga etkazish masalasi borasida bir qator ishlar amalga oshirilmogda.

Respublikamizda va hududlarda turizmni rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarga, katta e‘tibor berilib, uning turistik salohiyatidan samarali foydalanish yo‘llarini shakllantirish ustida ilmiy-amaliy ishlar olib borilmogda.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ички ва ташқи туризм салоҳиятини янада ошириш чора-тадбирлари юзасидан видеоселектор йиғилиши маърузаси. 19 сентябрь 2022 йил / Янги Ўзбекистон. 2022 йил 19 сентябрь

O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 17 iyuldagi “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-son “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021 yil 9 yanvardagi PF-6165-son “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonlari, 2021 yil 30 oktabrdagi PQ-5270-son “Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022 yil 30 apreldagi PQ-232-son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 dekabrda 978-son “Ekoturizmni rivojlantirish va suv omborlarining suv muhofazasi zonalari doirasida yer uchaskalarini berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-mayda 2020-2021-yillarda “Surxondaryo viloyatida turizmni rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora tadbir”lar⁵ dasturi belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqotiga muayyan darajada xizmat qiladi.

Yuqoridagi qonun, farmon va qarorlardan ko‘rinib turibdiki respublikamizning turizm salohiyatini rivojlantirish va bu sohaga investitsiyalarni faol jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratish. Shu bilan birga, mamlakatimizda turistik ko‘rgazma obyektlari va rekreatsiya zonalari sifati salohiyatidan to‘liq foydalanilib “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish. To‘siqsiz turizm

⁵ O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda - Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., Qonuni tahriri 03/21/683/0375-son)

infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026 yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish maqsad qilingani ko'rishimiz mumkin⁶

Surxondaryo vohasida turizm resurslari viloyatning har bir hududlarida mavjud bo'lib bular to'liq o'rganilmagan. Boy tarixiy merosi, an'analari, o'ziga xos tabiati, ya'ni ekologik turistik resurslarning qishloq joylarda joylashganligi turizm sohasida aholi bandligi ta'minlay olishga etarlicha tadqiq etilgan.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti: Qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun mavzuni predmeti bo'lib, Surxondaryo viloyati ekoturizm resurslaridan foydalanish iqtisodiy samradorlik yo'llari olingan.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari: Magisterlik ish mavzuning asosiy maqsadi, Surxondaryo viloyati ekoturizm resurslariga turmarshurutlar ishlab chiqishda turistlarning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar berishdan iborat.

Mavzuning maqsadidan kelib chiqib, **quydagi vazifalar ishlab chiqildi:**

- Ekoturizm resurslarining tasniflanishi va turlarinining asosiy omillarini o'rganish;

-Ekoturizm resurslarining turizmni rivojlantirishda, milliy iqtisodiyotda tutgan o'rnining o'zora aloqa sifatlarini aniqlash;

-Turizm infratuzilmasini shakllantirishda ekoturistik resurslarning o'rni, o'ziga xos xususiyatlari va me'yoriy-xuquqiy asoslarini o'rganish;

- Surxondaryo viloyatida turizm rivojlanishining iqtisodiy tahlil qilish;

- Surxondaryo viloyatidagi ekoturistik ob'ektlarning, ijtimoyi va iqtisodiy holatining muammolari va tendensiyalarini o'rganish;

-Surxondaryo viloyatida ekoturistik rayonlashtirish jarayon omillarni o'rganish;

-Ekoturizm rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda davlat-xususiy sherikchiligida tashkil qilingan subektlarning o'ziga xos xususiyatlari va me'yoriy-xuquqiy asoslarini o'rganish;

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son 36 -maqsadi

-Ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishda resurslardan samarali foydalanishdagi muammolari va takiflarni o'rganish;

-Ekoturizm marshrutlarni ishlab chiqishda turistlar talabi bo'yicha mavsumiylikni optimallashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

-Surxondaryo viloyati ekoturizm resurslari joylashgan hudidlarda turizm ob'ektlarini tashkil qilish asosida, yangi ish o'rinlari yaratish, mahalliy aholi daromadlarini oshirish orqali kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish yo'llati taklifi yoritib berilgan;

-Surxondaryo viloyati ekologik turistik rayonlarida, rekreatsiya resurslaridan foydalanib, norasmiy ishlayotgan fuqaroning bandligini legallashtirishga yordam berish, ularda ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to'liq foydalanish imkoniyatini yaratish shart-sharoitlarining me'yoriy-xuquqiy holatlari asoslangan;

-Turistlarga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan korxonalar, mehmonxona, umumiy ovqatlantirish shoxabchalarini davlat-xususiy sherikchiligi asosida tashkil etib, shu tarzda korxonalariga berilayotgan imtiyozlardan foydalanish imkoniyatini yaratish bo'yicha amaliy takliflari asoslangan.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Surxondaryo viloyati ekoturizm resurslaridan foydalanishning iqtisodiy, samaradorlik yo'llaridan foydalanishda amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan, hududlardagi turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi muassasalar faoliyatini takomillashtirishda xizmatlar bozorini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmlari, takomillashtirilgan. Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishi bo'yicha 2022-2026 yillarda Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muayyan darajada xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (taxlili). Ekologik turizm resurslaridan foydalanishni takomillashning nazariy-metodologik masalalari,

Robert.L. David A. Fennell, Martha Honer, David Weaver, Stephen Wearing, John Neil, Robert Fletcher kabi xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan⁷.

MDH mamlakatlari olimlari, M.B.Birjakov, B.S.Bogolyubov, V.P.Orlovskiy, A.Drovvich, N.I.Kabushkin, V.A.Kvartalnov, B.S.Senin, T.T.Xristov, A.D.Chudnovskiy, B.G.Fedsiov, V.V.Xrablovchenkovlar o‘z ilmiy ishlarida ekologik turizmni rivochlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratgan⁸

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan S.S.G‘ulomov, N.X.Jumaev, Q.X.Abdurahmanov, N.T.To‘xliiev, M.Q.Pardaev, T.Tashmurotov, A.N.Narchaev, M.M.Muhammedov, D.X.Aslanova, B.N.Navro‘z-zoda, O.M.Pardaev, A.M.Abduvohidov, M.T.Alimova, A.A.Eshtaev, B.H.To‘raev, O.H.Xamidov, B.Sh.Safarov, M.T.Alieva, N.E.Ibadullaev, N.S.Ibragimov, B.Yu.Mirbabaev, S.S.Ro‘ziev, N.E.Ibadullaev Z.N.To‘rayevlarning ilmiy izlanishlarida ekologik turizmni rivojlantirish hamda boshqarish jihatlari ko‘rib chiqilgan⁹.

⁷ Environmental Restoration and Design for Regreastion and Ecotourism: Robert.L. France, November 16,2011 by CRC Press, 312 Pagres: Ecotourisin, David A. Fennell-Routledge 3rd edition (December 13, 2017) Simultaneously published in the USA and Canadu by Routledge 304 p: Ecotourism and Sustainable Development Dr Martha Honer, Island Press: 2 edition (August, 2018), 568 p Ecotourism 2 and Edition: David Weaver,(Author) Wiley 2nd edition 2018 y, 360 p, Ecotourism 2nd Edition: Stephen Wearing, John Neil, Roulledge 2nd edition (March 25,2019) 304 p.

⁸ Храбовченко. В.В. “Экологический туризм учеб метод пособие. М. Финансы и статистика 2014 й. 208 с. Биржаков. М.Б. Введение в туризм. СПб, Издательский Торговый дом «Герда» 2018, 576 с., Боголюбов В.С , Орловская В.П. «Экономика туризма» -М.Издательский центр «Академия» 2015-151 с., Дроввич. А.П. «Маркетинговые исследования в туризме», учебное пособие –СПБ; Питер-2018-384 с; Кабушкин. Н.И. «Менеджмент туризма» -Минск Новое знание 2012.-407 с; Квартальнов. В.А. Туризм; учебник –М; Финансы и статистика 2013 й. 320 с, Сенин Б.С. Организация международного туризма. –М; Финансы и статистика 2014 й. 379 с, Христов Т.Т. Религиозный туризм; учиб пособ.3-е изд. испр.-М. Издательский центр «Академия» 2017 -288 с. Чудновский. А.Д. Управлений индустрией туризма России в современных условиях; учебное пособие. –Ростов н Д; Феникс, 2018.-503 с

⁹ Z.N.Turayev Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan DISSYERTASIYASI –Tashkent-2022. Gulyamov S.S., Jumaev N.X., Raxmanov D.A.,Toshxodjaev M.M. Ijtimoiy sohada investitsiyalarning samaradorligi. Monografiya. – T.: IQTISODIYOT, 2019. –203 b.; Abduraxmonov K.X. Menejment turizma: Uchebnoe posobie. – T.: Filial FGBOU VPO «REU im. G.V. Plexanova» v g. Tashkente, 2013.; Tuxliev N., Abdullaeva T. Menedjment i organizatsiya biznesa v turizme Uzbekistana. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. -2021. -367 s.; Pardaev M.Q., Atabaev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. - Samarqand: SamISI, 2016. -137 b.; Tashmurotov T., Agzamov S. Marketing mejdunarodnogo turizma - T.: 2008.; Pardaev A.X., Norchaev A.N., Rabbimov E.N. Ekologik turizm. -O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2011. -84 b Narchaev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari DSc. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: TDIU, 2021 - 246 b. Muxammedov va boshqalar Xizmat ko‘rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari. – S.: Zarafshon 2017. -299 b.; Aslanova D.X. Modeli formirovaniya turistskogo klastera za rubejom. //Servis, 2013. - №1. - S: 4-9; N.Navruz-zoda B., Ibragimov N.S., Navruz-zoda Z.B., Navruz-zoda Sh.B. Turistik hudud raqobatbardoshligi. Monografiya. Buxoro: “Sadridin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2017 -156 b.; Pardaev O.M. Menejment. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2019. –248 b.; Abduvohidov A.M. Turizmde elektron biznes. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU. Iqtisodiyot, 2020. -189 b.; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida). DSc. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -S.: SamISI, 2017. -265 b.; Eshtaev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O‘zbekiston Respublikasi turizm tarmog‘i misolida). DSc. dissertatsiya avtoreferati – Samarqand. 2019. Turaev B.X. Razvitie organizatsionno-ekonomicheskix mexanizmov funkcionirovaniya regionalnogo turizma: -dok. diss. avtoref., 2011.– 38 s.; Xamidov O.X. Vybor konkurentnoy strategii predpriyatij na rynke turistichekix uslug Uzbekistana: kand. diss. avtoref, 2016. -22 s.;

Mamlakatimizda turizm sohasini har tomonlama rivojlantirish, koronavirus pandemiyasi va inqiroz ta'siri tufayli yuzaga kelgan muammolar yechimini topish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, Surxondaryo viloyati ekoturizm resurslaridan foydalanishning iqtisodiy, samaradorlik yo'llari iqtisodiy mexanizmi va usullarini takomillashtirish kabi masalalar etarlicha tadqiq etilmagan. Bu esa tanlangan mavzuning bugungi kun nuqtai nazaridan dolzarbligidan dalolat beradi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikasining tavsifi. Oldinga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun qo'yidagi tadqiqot uslublari qo'llanildi; ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, ilg'or amaliy tajribani tahlil qilish va umumlashtirish; analiz va sintez, induksiya va deduktsiya, tizimli mantiqiy yondashuv, iqtisodiy va statistik tahlil usullaridan foydalalanilgan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati, ekologik turizm sohasining tasniflanishi va turlari haqida ma'lumotlarni yoritib berish, turizm sohasining resurslari haqida tushuncha berish, turizm sohasidagi xizmatlar va mahsulotlarning farqini aniqlash, turizm industriyasi va infratuzilmasining ahamiyatini yoritish, ekologik, gastronomik va qishloq turizmlarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini o'rganish, turizm xizmatlarida menejment va marketing tadqiqotlarini amalga oshirish jarayonlari, O'zbekiston Respublikasining turizm sohasidagi davlat siyosati haqida ma'lumot berish g'oyalari ilgari surilgan.

Ish tuzilmasining tasnifi: Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, 9 ta paragraf, xulosalar va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 80 betdan iborat.

Safarov B.Sh. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2016. -254 b.; M.T. Alieva. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari: iqt. fan. dok. diss. avtoref. – S.: SamISI, 2019. -77 b; Ibadullaev N.E. Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misolida). – iqt. fan. nom. diss. avtoref. – Samarqand, 2010. Ibragimov N.S. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda destinatsion menejment konsepsiyasini qo'llash. – iqt. fan. nom. diss. avtoref, 2008. –23 b; Mirbabaev B.Yu. O'zbekiston turizmida marketing va uning globallashtirish sharoitida takomillashuvi. – iqt. fan. nom. diss. avtoref. 2008.–23 b; Ro'ziev S.S. O'zbekiston madaniy turizm bozori va uning istiqbollari. – iqt. fan. nom. diss. avtoref. 2009. –21 b. Pardaev M.Q., Atabaev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. -Samarqand: SamISI, 2016. -137

I-BOB. EKOTURIZM RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Ekoturizm resurslarining tasniflanishi va turlari

Ekoturizm resurslari turizmdagi ahamiyati uning ijtimoiy – iqtisodiy mazmunidan kelib chiqadi. Turizm ijtimoiy sohaning bir qismi bo'lib, uning asosiy faoliyatlarida iste'molchiga iste'mol jarayonida moddiy va nomoddiy muhitni yaratish uchun xizmatlar qilish, dam olish va faoliyat ishlarini o'zgartirish, almashtirish uchun sharoitlar yaratish, sog'liqni muhofaza qilishni ta'minlash, shuningdek, aholining umumiy ma'lumoti va madaniy – texnik darajasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda ekoturizm resurslariga turistlarning dam olishni tashkil qilish, insonning hayotiy kuchlarini tiklash, bo'sh vaqtdan unumli, to'g'ri foydalanishni ta'minlaydi. Shuningdek, ekoturizm turistik resurslar, shaxsning rivojlanishida, barkamolligida, sayohatchining intellektual darajasini oshirishda, asabiy holatini yaxshilashda, shaxs sifatida tavsifini berishda xalqaro, davlatlararo va ona tabiiyatga bo'lgan munosabatlariga ijobiy ta'sir qiladi.

Qadimda ham savdogarlar savdo karvonlari tashkil etib boshqa davlatlarga sayohat qilish katta daromad keltirishini yaxshi tushunishgan. Arab olimi Ibn Xaldun (1200-1300 yillar) davlatlar o'rtasida savdo sotiqni rivojlantirish va savdogarlarga sharoit yaratish, karvonsaroylar qurish davlatlarga qo'shimcha daromad olib kelishini ta'kidlab o'tgan¹⁰.

Ekoturizm muqobil turizm turi sifatida ko'pincha barqaror rivojlanishni nazarda tutadi va hukumatlar tomonidan atrof-muhitga ta'siridan qat'iy nazar qo'llab-quvvatlanadi. Bundan tashqari ekoturizm resurslari turizmning ijtimoiy samaradorligini ta'minlaydi. Ekoturizm resurslaridan to'g'ri foydalanish. Bu sohada bevosita aholining ijtimoiy-muhtoj qatlami, ya'ni qishloq joylarda yashovchi ishsiz aholini ish bilan ta'minlash, xotin-qizlarni, nafaqaxo'rlarni, talaba – yoshlarni, nogironlarni, aholining shunday toifasini band qilish va sayohat qildirish tushuniladi. Eng muhimi ushbu sohaga qo'yilgan investesiya foyda uchun

¹⁰ Ташмурадов Т. Международный туризм: справочник менеджера (учебное пособие). Ташкент, ТашГЭУ, 2013. – С. 84

emas, balki ijtimoiy qo'llab – quvvatlash uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Jahon sog'liqni saqlash tashilotining ma'lumotlariga ko'ra, aholi salomatligi 40-50% ularning iqtisodiy ta'minoti va yashash tarzi, 18-20 % atrof muhitning holatiga, 20-30% tibbiy xizmat darajasiga bog'liq bo'ladi. Havoning ifloslanishi aholi salomatligining 43-45 % yomonlashuviga sabab bo'ladi. Zamonaviy gigiyena fani atrof-muhitning ifloslanishi aholi kasallanishining o'rtacha darajasi 20% ga oshishini aniqlagan. Bunday vaziyatda rekreatsiya faoliyati ijtimoiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning muhim tarmog'iga aylanadi. Bu aholining ishdan bo'sh vaqtdan foydalanishni yaxshilashga va dam olishini tashkil etishga xizmat qiladi. Rekreatsiya inson tamonidan yuqori baholanadigan va ijtimoiy natija beradigan keng yo'nalishni qamrab oladi. Unda dam olish va sog'lomlashtirish, bilish va ijod, odamlar va tabiat bilan tanishish, ta'lim va tarbiyani takomillashtirish va boshqalar birgalikda o'z ifodasini topadi. Bunday ehtiyojlarni qondirish, sog'lomlashtirish, umrni o'zaytirish, insonning jismoniy va ma'naviy darajasini oshirish, shaxsni barkomallashtirish, bilim va malakalarni oshirish va boshqa qator ijtimoiy natijalarga erishishga imkon beradi. Tabiiy omillarga asoslangan rekreatsiya faoliyati (turizm) shahar va qishloq aholisi orasida keng tarqalgan kasalliklarning ommaviy profilaktik vositasi hisoblanadi. U faqatgina ish qobiliyatini tiklashni va mehnat unumdorligini oshirishnigina ta'minlab qolmay, balki 20-50 % ga yurak-tomir, asab, nafas olish, oshqozon, suyak kasalliklari patologiyasi paydo bo'lishining oldini olishni ta'minlaydi¹¹.

Surxondaryo viloyatining tog' va tog'oldi zonalarida turizm-rekreatsiya salohiyatidan unumli foydalanishda kichik turizm zonalarini tashkil etish hamda ichki turizmni kengaytirishda ota-onalar, qarindoshlar, qariyalar va ustozlar bilan birgalikda sayohat qilishni nazarda tutuvchi "oilaviy sayohat ta'tili" tizimini joriy etishda katta salohiyatga ega¹².

¹¹ www.nationalgeographic.co. fitur-edition-2022

¹² Z.N.Turayev Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi –Tashkent-2022

Bunda, Boysun, Sariosiyo, Uzun, Sherobod tumanlaridagi kichik turizm zonasi hududida turizm infratuzilma ob'ektlari barpo etilishi, "oilaviy sayohat ta'tili" tizimi joriy etilishi natijasida 2021 yilda viloyatda E-mehmon dasturi orqali qayd qilingan ichki turizm oqimi 854 ming (2019 yilga nisbatan 1,7 barobar ko'p) nafargacha oshgan. Surxondaryo viloyatidagi Uchqizil, Konbeshbuloq meteorit ko'llari va Surxon, Oqtepa, To'palang suv omborlari muhofaza zonalaridagi turizm ob'ektlari imkoniyatlarini yuqori, o'rta va past salohiyat darajalariga ajratish hamda gastronomik turizmni shakllantiruvchi ovqatlanish korxonalari, suvenir do'konlari, tabiat muzeylari, dam olish bog'lari kabi infratuzilmalarni o'z ichiga olgan ekoturizmni rivojlantirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 dekabrda 978-son "Ekoturizmni rivojlantirish va suv omborlarining suvni muhofaza qilish zonalarini doirasida yer uchastkalari ajratish tartibini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligining 2022 yil 6 yanvardagi 03-17-02/45-son ma'lumotnomasi). Natijada, Qumqo'rg'on tumanidagi "Janubiy Surxon" suv ombori muhofaza hududida 0,5 gektar, Sariosiyo tumanidagi "To'palang" suv ombori muhofaza hududida 1 gektar, Termiz tumanidagi Uchqizil ko'li muhofaza hududida 1 gektar yer maydoni ajratildi. Uchqizil ko'li bo'yida 17 mlrd so'm investitsiya xisobidan "OXUS" dam olish maskani, umumiy ovqatlanish va savdo nuqtalari, go'zallik saloni, basseyn, plyaj, bolalar maydonchasi, minifutbol maydoni, tennis korti kabi infratuzilma ob'ektlari ishga tushirildi va ekoturizm xizmatlari yo'lga qo'yildi¹³.

Surxondaryo viloyatidagi Dalvarzintepa, Kampirtepa (Oks Aleksandriyasi), Fayoztepa kabi arxeologik yodgorliklarni arxeologik va madaniy turizm ob'ektlariga aylantirishda ushbu ob'ektlar yonidagi ixtisoslashtirilgan ovqatlanish shoxobchalari, turistik qo'ngilochar muassasalarni tashkil etishning 50 foizgacha bo'lgan xarajatlarini "Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi"ning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplash taklifi O'zbekiston

¹³ Z.N.Turayev Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi –Tashkent-2022

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 27 maydagi 332-son “Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga kiritilgan (O‘zbekiston 12 Respublikasi Turizm va sport vazirligining 2022 yil 6 yanvardagi 03-17- 02/45-son ma’lumotnomasi). Natijada, viloyatda YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiya tomonidan Termiz tumanidagi “Eski Termiz” hududida joylashgan buddizm ob’ektlarini YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritish bo‘yicha hujjatlar tayyorlanib, “Qadimgi Termiz” (Termiz shahrining tarixiy qismiga sayohat), “Sivilizatsiya beshigi” (Termiz-Boysun ziyoratgohlari turizm marshruti), “Budda rohiblari izidan” (Termiz-Sho‘rchi-Denov turizm marshruti), “Aleksandr Makedonskiy izidan” turistik marshrutlari ishlab chiqilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.¹⁴

Ushbu marshrutlar bo‘ylab ixtisoslashtirilgan ovqatlanish shoxobchalarini o‘z ichiga olgan “Gastronomik ko‘cha”, 50 tadan ortiq “Coffeeshop”lar ishga tushirilgan. Boysun, Sherobod, Sariosiyo kichik turizm zonalarida joylashgan qishloq va mahallalarda 30 tadan oilaviy mehmon uylari yaratilib sayyohlarga xizmat ko‘rsatib kelmoqda. Ushbu tashkil etilgan oilaviy mehmon uylari kamida besh xil xizmat turi ko‘rsatgan taqdirda ularni “Turizm qishlog‘i” va “Turizm mahallasi” maqomi milliy reestriga kiritish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 27 maydagi 332-son “Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligining 2022 yil 6 yanvardagi 03-17-02/45-son ma’lumotnomasi). Natijada, Sariosiyo tumanida “Sangardak”, Sherobod tumanida “Chorbog‘”, Boysun tumanida “Omonxona” va “Sayrob”, Oltinsoy tumanidagi “Xo‘jaipok” turizm qishlog‘i va mahallalarini Surxondaryo viloyatida ekoturizm resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik yuqori tuman va qishloqlarga

¹⁴ Z.N.Turayev Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiyasi –Tashkent-2022

qo'shish mumkin. Har qanday hududiy birlikning iqtisodiy-samaradorligi, geografik o'rni xususiyatlari avvalo uning qayerda joylashganligi bilan bog'liqdir. Ma'lumki, vohada turizm sohasining barcha turlaridan foydalanishning mavjud iqtisodiy-geografik o'rining barcha ijobiy va salbiy xususiyatlari ko'p jihatdan ana shu holatdan, shuningdek uni qo'shnihilik xususiyatlaridan (qanday davlatlar, iqtisodiy rayonlar, dunyo mamlakatlari mintaqaviy guruhlariga tutush yaqinligi, ularning bir-birlariga iqtisodiy ta'sir etish imkoniyatlari) kelib chishlari keltirilgan. Surxondaryo viloyati, sharq va janubiy sharqdan Tojikiston, g'arb va janubi-g'arbda Turkmaniston, janubda esa Afg'oniston bilan chegaralanadi. Odatda, alohida olingan hududning iqtisodiy geografik joylashuv o'rnini o'rganish, tadqiq va tahlil qilish orqali biron bir sohani rivojlanishi holatiga baho berish va kelajagi haqida fikr yuritish mumkin. Shu jihatdan viloyat hududining katta qismini ekologik zona, aholisining yaxlitligi, qardosh (yalpi qadim Turon zaminidagi) yashgan insonlar ekanligi va mintaqaviy cho'zilganligi, yer usti tuzilishining bir-biriga muvofiq holatda o'rin almashishi (tekislikning adir yassi tog'lik va baland tog'liklar bilan almashinishi) hududda ijtimoiy taraqqiyot uchun kattagina imkoniyatlar yaratganligi ifodalaniadi.

Surxondaryo viloyat hududidagi ekoturizm resurslaridan foydalanish iqtisodiy geografik jihatdan uch pog'onaga: mikro, mezo va makro darajaga bo'lish mumkin.

O'zbekiston, viloyat hududining mikro darajadagi holati, uning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan tutgan o'rnidir. O'zbekiston qadim Turon zaminida hamisha salohiyati katta davlat bo'lgan. Bu ko'p jihatdan uning geografik markazligidan kelib chiqqan. Yaqin o'tmish (ya'ni sho'rolar hukmronligi yillari)da ham o'rta Osiyodagi respublikalar bir-birlari bilan ijtimoiy taraqqiyotning ko'p sohalarida bog'langanlar. Markaziy Osiyo davlatlarida bunyod qilingan temir yo'llar, avto magistrallar, quvurlar ham bir-birlariga bog'langanligini keltirib o'tgan.¹⁵

¹⁵ Ibadullaev N.E. Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misolida). SamISI, 2019. -77 b;

Viloyatning qulay iqlim sharoiti va o'ziga xos landshaftini inobatga olgan holda ekologik turizm sohasini rivojlanishi uchun barcha asoslar mavjud. Boysun, SHerobod, Sariosiyo, Denov va Oltinsoy tumanlari ajoyib tog' tizimalari va daryolariga boy. Tog'ning toza havosi, yil davomida quyoshli kunlarning ko'pligi, ajoyib tog' manzaralari nafaqat viloyatimiz aholisi respublikamizning boshqa viloyatlari fuqarolarini, balki Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Afg'oniston kabi qo'shni mamlakatlarning aholisi ham tashrif buyuruvchi turizm obyektlariga aylanishiga imkon beradi. Voha hududida mineral suvlarning, 30 dan ortiq shifobaxsh yer osti mineral suv manbalari mavjud. Ushbu yer osti mineral suv manbalaridan hozirgi kunda ekoturizm maskanlari sifatida foydalanish uchun ko'plab odamlar tashrif buyuradi. Bugungi kunda bu manbalarning 10 dan ortig'idan mahalliy aholi foydalanib kelmoqda. Jumladan, Termiz tumanida joylashgani Marvarid dam olish oltin gugurtli mineral suv maskan. SHerobod tumani tog'laridagi O'rin buloq madaniy suvi, Xo'jaykon tuz g'ori. Boysun tumanidagi Sayrob bulog'i, Omonxona shifobaxsh mineral suv, Xo'ja mayxona daryosi, Xo'ja qo'chqor-ota va Xo'ja gurgur-ota madaniy suvi. Oltinsoy tumanidagi Xo'jaypok ota mineral suv maskani. Sariosiyo va Denov tumanlaridagi tog' shifobaxsh buloq mineral suvlaridan yilning turli xil fasillarida foydalanib kelinmoqda.

Baland qorli tog'larida alpinizm, speleoturizm, daryo turizmi kabi turli tog' turizmi turlarini amalga oshirish imkonini mavjud. Shifobaxsh giyohlarning ko'pligi turli xil ekologik turlar, turli giyohlar va o'simliklar yig'ish uchun turlarni tashkil etishga imkoniyatlar mavjud. Bu esa ko'plab chet ellik turistlar orasida qiziqish uyg'otadi.

Vohaning ekologik turizm resurslaridan foydalanish xususiyatiga asosan quyidagi muhim tasniflanish tarkibiy qismlarga ajratishimiz mumkun:

Tabiiy issiqlik ekoturizm;

Daryo va ko'llar ekoturizm;

Ekologik toza hudud (Tog' ekoturizmi);

O'rmon va sun'iy bog' zonalari ekoturizm;

Ajoyib tabiat va rekreatsiya resurslari ekoturizmi;

Tarixiy obidalar ekoturizmi;

Arxeologik qazilmalar va arxitektura yodigorliklari ekoturizmi;

Me'morchilik yodgorliklariga ega ekoturizm;

Xalq madaniyati, urf-odat rusumlari, ma'naviyatini ko'rish ekoturizm;

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ekoturizmiga ajratiladi.

Surxondaryo viloyatining tabiyati boshqa xududlarda uchramaydigan ekzotik tabiati, xilma xil landshaftlari, flora va faunasi butun turistik regionning jozibadorligini belgilovchi asosiy omillardir.

Surxondaryoning tabiiy issiqlik ekoturizm manbasi, quyosh radiatsiyasi nuriga ancha boyligidir. Negaki, vohamizda quyosh yil davomida ufqdan balanda bo'lib, nur sochadi. Quyosh iyun oyida ufqdan Toshkentda 72-C, Termizda 76-C gacha ko'tariladi¹⁶. Yoz oylarida hududimizda quyosh nuridan nihoyat ko'p energiya qabul qilinadi. O'rtacha bir yilda har bir sm yer yuzasiga 100-120 ming kaloriy quyosh nuri tushadi. Quyoshdan kelayotgan enegiyadan xalq xo'jaligida energiya manbai, oziq-ovqat sohasida yuqori sifatli qimmatbaho ziroatchilik, bog'dorchilik, subtropik mevalar yetishtirish imkoni beradi. Inson sog'lig'ini tiklashda quyosh nuriga to'yingan xalq xo'jaligi mahsulotlaridan tashqari. Quyosh tabiiy issiqlik nurilaridan to'yingan. Kimyoviy tarkibi jihatdan asosan yodbromidli, gidrokarbonatli, gidrokorbanat-sulfatli, qisman sulfat-xloridli va xloridli kvars Uchqizil, Kokayti, Xavdog', Jayronxona tabiiy qumlaridan tibbiy – biologik vosita sifatida foydalaniladi.

Mamlakatimizning asosiy boyligi suv – daryo va ko'l suvlaridan ekologik turizm resursi sifatida foydalaniladi. Bevosita daryo suvlari respublikamiz xalq xo'jaligini rivojlanishining asosiy omillaridan hisoblanadi.

Vloyatning yirik daryolariga Surxondaryo, Sheroboddaryo, Xo'jaipokdaryo, Darbanddaryo kabi daryolar kiradi. Yirik daryosi hisoblangan Amudaryo irmoqlari O'zbekiston hududidan tashqarida boshlanadi.

Vohaning barcha geografik mintaqalarini suv bilan ta'minlaydigan.

¹⁶ Pardaev M.Q., Atabaev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. - Samarqand: SamISI, 2016. -137 b

Sariosiyo tumanidagi “To‘palang”, Qumqo‘rg‘on tumanidagi “Janubiy surxon”, Termiz tumanidagi “Uchqizil” suv omborilari hududlarida, zarur infratuzilmani yaratib, ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari katta.

Ekologik toza hudud (Tog‘ ekoturizmi); Pomir-Oloy tog‘ sistemasining tarkibiy qismi bo‘lgan o‘lkan, Hisor tog‘larining eng janubiy-g‘arbiy qoyali tarmog‘ida Kuhitangtog‘ joylashgan. Tog‘ning nomi forsiy-turkiy so‘zlarning qo‘shilishidan paydo bo‘lib “tor darali tog‘” degan ma‘no beradi va xaqiqatdan ham nomiga mos tushib ko‘kga intilayotgan Hisor tog‘larining janubiy tekislik oldidagi daralar bilan parchalangan so‘nggi Kuhitangtog‘ O‘rta Osiyoning baland tog‘lariga kirmaydi. Uning eng baland qismi xisoblangan Ayribobo cho‘qqisi, dengiz yuzasidan atigi 3000 metrdan ozroq balandlikda joylashgan. Shu sababli bu tog‘da muz qoplangan cho‘qqilar, ko‘llar va hayqirib oqayotgan tog‘ daryolarini uchratmaysiz. Ko‘hitangtog‘ quruq subtropiklar mintaqasida joylashgani uchun, yil davomida issiq bo‘lib turadi, yomg‘ir kamdan kam yog‘sa, qor ko‘chkilari deyarli bo‘lmaydi. Bahor, erta keladi, fevral oyining o‘rtalari uning birinchi belgilari paydo bo‘lsa, aprel oyida yozning belgilari oppoq tiniq osmon va ko‘zni tinitadigan yorqin quyosh paydo bo‘ladi. Go‘zalligi bilan Ko‘hitangtog‘ Alp rayonlaridan kam farq qiladi. Qoyali yonbag‘irlarini yorqin rangli archazor, pistazor va bodomzorlar qoplagan. Hayvonot dunyosi ham rangbarang va mukammaldir. Yonbag‘irlar bo‘ylab yovvoyi echki, to‘ng‘izlar uchrasa, qushlardan kaklik sayrashi hamma joyda eshitiladi. Osmonda burgutlar parvoz etadi. Lekin Ko‘hitangtog‘ning eng ko‘p tarqalgan va betakror boyligi, undagi keng tarqalgan karst formalaridir¹⁷.

Yilning to‘rt faslida ekoturizm bilan shugullanish imkoni mavjud. Karst bu ilmiy jumla bo‘lib bu so‘zni aytganda eruvchan tog‘ jinslarining erishi natijasida hosil bo‘lgan tog‘ yonbag‘irlaridagi voronkasimon chuqurliklarni, keng o‘pirilmalarni, chuqur quduq va shaxtalarni, mayda va yirik buloqlarni, qoyalar ustidagi “tosh tirtiqlar”- karrlarni va nihoyat yer ostidagi betakror va go‘zal yer

¹⁷ Atabaev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. -Samarqand: SamISI, 2016. -137

osti olami, g'orlarni tushunamiz¹⁸. Kuhitangtog'da g'orlar soni juda ko'pdir. Ulardan yuzdan oshiqrog'i hozircha o'rganilgan. Bu betakror go'zallikni o'rganish uchun bu soha mutahassislari karstshunos olimlar, hamda ularning yordamchisi sportchi speleologlarning ko'p yillik va tinmas mehnati kerakdir. Bu ish faqat yaqindagina boshlandi. Shular qatorida bir muncha kechikib bo'lsa ham tabiatni nodir mahsuloti bo'lgan g'orlarni himoya qilish choralari ishlab chiqilgan va ular ko'pchiligi joylashgan maydon davlat geologik ko'rikonasiga kirgizilgan.

O'rmon va sun'iy bog' zonalari ekoturizm, milliy park zonalari, ekoturizm ob'ektlarida nayob hisoblangan o'simliklar va hayvonlar muhofaza qilinadi. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ularning nodir va tugab borayotgan turlarini saqlab qolish, sonini ko'paytirishda xalq parklarining ahamiyati kattadir. Davlatimiz tomonidan milliy parklarni rivojlantirish va tabiatdan oqilona foydalanish bo'yicha qo'shni davlatlar dorasida ham ko'p ikki tomonlama kelishuvlar imzolangan. Ularga Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston bilan imzolangan shartnomalar misol bo'ladi. Bunga asosan hamkorlikda tabiatdan maqsadli ravishda foydalanishga kelishib olingan. Bu kabi kelishuvlar turistlarga ekologik yo'nalishda xizmat sifatini oshirishda va turistlar almashinuvini yo'lga qo'yishda xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-maydagi 332-sonli 2020-2022-yillarda "Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori banlari bilan o'rmon va sun'iy bog' milliy park zonalaridan ekoturizm ob'ektlarida foydalanishning qonuniy xuquqiy bazasi shakllantirilgan.¹⁹

Bu ishlarni quyidagi ishlarda ko'rishimiz mumkun.

1. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Transport vazirligi va Surxondaryo viloyati hokimligining 2020-yilning iyul

¹⁸ Atabaev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. -Samarqand: SamISI, 2016. -137

¹⁹ Ўзбекистон Республикаси Президент раислигида мамлакатимизнинг ички ва ташқи туризм салоҳиятини янада ошириш чора-тадбирлари юзасидан видеоселектор йиғилиши маърузаси. 19 сентябрь 2022 йил / Янги Ўзбекистон. 2022 йил 19 сентябрь.

oyidagi qo'shma qarori asosida, Termiz — Sariosiyo — Denov — Boysun — Sherobod — Termiz yo'nalishi bo'ylab turistlar uchun mo'ljallangan avtobuslarning "City Tour" prinsiplari asosida "Oltin uchburchak" loyihasi ishlab chiqilib muntazam qatnovlar yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi avtobuslarning muntazam qatnovi yo'lga qo'yilishi to'g'risida turoperatorlar, mehmonxonalar, gidlar va boshqa turizm sohasi vakillari o'rtasida keng targ'ibot ishlarini olib borilishgan.

2. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan birgalikda Boysun tumanidagi Omonxona qishlog'i, Zovboshi tog'li hududi, Darband qishlog'i hududlarini o'z ichiga olgan — Boysun kichik turizm zonasiga investorlarni jalb qilgan holda, turizm infratuzilmasini barpo etish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish ishlarini tashkil qilib kelmoqda.

3. "Hunarmand" uyushmasi O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan birgalikda viloyatda esdalik sovg'a mahsulotlarining turlarini diversifikatsiya qilish, xususan tarixiy-madaniy va arxeologiya, islom ziyorati, ekologiya, buddizm obyektlari, gastronomik va boshqa turizm turlarini aks ettiruvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yib kelmoqda.

4. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va Surxondaryo viloyati hokimligi bilan birgalikda, Surxondaryo viloyatidagi Surxon davlat qo'riqxonasi hududida turizmni rivojlantirish maqsadida, "Zarautsoy qoyatosh sur'atlari" turizm namoyishi obyektlarini qo'riqxonaning qo'riqlanma zonasidan chiqarib, turistlar tashrifi uchun qulay muhit yaratilgan. Zarautsoy qoyatoshlaridagi bitiklarni saqlab qolish va yosh avlodga keng tanishtirish maqsadida Zarautsoy tarixi haqida chop etilgan kitoblarni saralab yangidan chop etish ishlarini tashkil etib kelinmoqda. Bugungi kunda, Surxon qo'riqxonasida 747 ta o'simlik turi, shundan 39 ta turi O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan. Faunasida umurtqali hayvonlarning 181 turi, shundan, 21 turi sudralib yuruvchilar, 132 turi qushlar va

24 turdagi sutemizuvchilar mavjud. Ularning 20 turi O‘zbekiston “Qizil kitobi”ga kiritilgan. Surxondaryo viloyatining tabiiy turistik resurslarini (1.1.1-jadval)

1.1.1- Jadval

Surxondaryo viloyatining tabiiy ekologik turistik resurslari²⁰.

Ekologik turistik resurslari	Ob’ektlar
Plyajlar	Janubiy Surxon, Oqtepa, Degrez suv omborlari
Dengiz, daryo, ko‘llar qirg‘oqlari	To‘palang, Sangardak, Xonjiza, Xo‘jaipok, Surxondaryo, Machaydaryo, Sherobodaryo
Tog‘lar va landshaftlar	Hisor tog‘ tizmalari, Boysuntog‘, Ko‘hitangtog‘, Bobotog‘ yonbag‘rlari
O‘rmonlar	Surxon davlat qo‘riqxonasi, Bobotog‘, Uzun, Termiz, Sherobod, Boysun o‘rmon xo‘jaliklari
Sharsharalar	Sangardak sharsharasi
Ko‘llar	Uchqizil, Konbeshbuloq meteorit ko‘llari
G‘orlar	Xo‘jaikon tuz g‘ori, Machay, Xo‘jaipok ota, Teshiktosh, Qoratepa, Amir Temur, Xo‘ja G‘ur-G‘ur ota, Boybuloq va Vishnevskiy g‘orlari
Flora va fauna, jumladan qushlar	1000 dan ortiq flora (100 dan ortig‘i Qizil kitobga kiritilgan) va 126 turdagi fauna
Mineral buloqlar	320 dan ortiq mineral buloqlar
Muhofaza qilinadigan hududlar - parklar, qo‘riqxonalar	Surxon davlat qo‘riqxonasi, Bobotog‘, Uzun, Termiz, Sherobod, Boysun o‘rmon xo‘jaliklari
Boshqalar	Denov dendrariy bog‘

Surxondaryo viloyatining Termiz, Sherobod, Boysun, Oltinsoy, Denov, Sariosiyo tumanlari o‘zining yer osti va yer usti xom ashyo zaxiralari, o‘simlik dunyosi, tarixiy va sayyohlik maskanlari, alohida qadriyatlarga boyligi bilan turizm sohasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, hududlarda tabiiy gaz, toshko‘mir, sement xom ashyosi, ohaktosh, g‘isht xom ashyosi, pardozbop toshlar, dolomit, keramzit, gips va angidrit va boshqa xom ashyo zaxiralari, shuningdek, dorivor o‘simliklarning 2100 dan ortiq turi aniqlangan.

Vohaning tog‘li hududlarda qishki sport – dam olishni amalga oshirish mumkin. Viloyatning, Sherobod tuman, “Ko‘htang tog‘i” Boysun tuman

²⁰ Z.N.Turayev Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiyasi –Tashkent-2022

“Zovboshi” Sariosiyo tuman “Sangardak” hududi katta imkoniyatlarga ega. Sog’likni tiklash manbasi hisoblangan mineral suv va balchiqlar soni 10 dan ortiq. Bu yer osti suvlari kimyoviy tarkibi, tibbiy – biologik va boshqa xususiyatiga ko’ra bir – biridan farq qiladi. Bu hududlarda dam olish oromgohlari sonini ko’proq tashkil etib, birinchidan, aholini salomatligi yaxshilanishga, ikkinchidan, shu joy aholisini ish bilan ta’minlab, iqtisodiy daromat oshirishini ta’minlanadi. (1.1.2 -Jadval).

1.1.2- Jadval

Surxondaryo viloyatning turistik salohiyati²¹

Noyob madaniy-tarixiy meros	Xilma xil noyob tabiiy - iqlimiy ko’rkam joylar
Jahon sivilizasiya markazlaridan hisoblangan, “Buyuk ipak yo’li”ning markazida joylashganligi sababli buyuk tarixiy merosga ega ekanligi. Termiz, SHerobod, Boysun va Denov kabi tarixiy shaharlarning mavjudligi va boshqalar.	Mintaqada tabiatning turli ko’rinishlari – cho’llar, dashtlar, vohalar, tog’ va muzliklarning mavjudligi. Undan tashqari noyob o’simlik va hayvonat olami muhofaza etiladigan milliy bog’, qo’riqxona va buyurtmalarning faoliyat ko’rsatayotgani turizmni rivojlantirish resurslari hisoblanadi.
Rekreasion-gidromineral resurslar	Diniy – tarixiy diqqatga sazovar joylar
Viloyat tog’lari va tog’ oldi hududlari bir qancha mineral suv manbalariga ega. Bu o’z navbatida sog’lomlashtirishga imkon beradi. Jumladan, Termiz tumanidagi, oltin gugurtli mineral suv, Boysun tumanidagi “Omonxona” shifo baxsh suvi, Oltinsoy tumanidagi “Xo’jayi-pok” oltin gugurtli mineral suv, SHerobod tumanidagi “G’o’rin buloq” mineral suvi, “Xo’jayi-kon tuz g’ori”laridan sanatoriya-kurort, profilaktika muassasalari sifatida keng foydaniqlamoqda.	Diyorimiz ulug’ Islom dini rivojlanishiga hissa qo’shgan ulamonlar vatani hisoblanadi. Imom-at-Termiziy,(SHerobod) Al-hakim-At-Termeziy,Sulton-Soadot (Termiz t), Aloviddin-ator (Denov) Sofi-Allohiyor, Mavlona Zohid (Oltinsoy) kabi ulug’ qadamjolarning mavjudligi diniy turizmni rivojlanishi uchun asos hisoblanadi
Noyob xalq urf-odatlarini, marosimlari	
Boy o’tmishga ega xalqimizning takrorlanmas urf-odat, an’analarga ega. Xalq ijodiyoti namunalari, hunarmandchilik mahsulotlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Undan tashqari folkrolshunoslikni rivojlanganligi sayyohlarni o’ziga jalb qiladi.	

²¹ Muallif tomonidan tuzilgan

Surxondaryo viloyati tabiati rang – barang bo'lib, yilning issiq yoz oylarida, sovuq qish va kuz fasllarida ham, tabiatni ilk uyg'onish vaqti bahor fasllarida dam olishni tashkil etishni imkoniyati mavjud. Misol uchun tog'li hududlarda qishki sport – dam olishni amalga oshirish mumkin. Sariosiyo, Boysun, Oltinsoy va SHerabod tumanlarida joylashgan to'glardagi “Kichik turizm zonalari” Zovboshi, Sangardak, Ko'htang tog' tizmalarida dam olish majmuasi katta imkoniyatlarga ega. Xuddi shunday majmualarni, Sog'likni tiklash manbasi hisoblangan mineral suv va balchiqlari, yer osti suvlari kimyoviy tarkibi, tibbiy – biologik va boshqa xususiyatlariga ko'ra bir – biridan farq qiladigan.

Termiz tumanidagi, oltin gugurtli mineral suv, Boysun tumanidagi “Omonxona” shifo baxsh suvi, Oltinsoy tumanidagi “Xo'jayi-pok” oltin gugurtli mineral suv, SHerabod tumanidagi “G'o'rin buloq” mineral suvi, “Xo'jayi-kon tuz g'ori”laridan sanatoriya-kurort, profilaktika muassasalaridan keng foydani moqda. Bunhan tashqari, ushbu joylarda yashovchi aholi xonadonlarida “Mehmon uy”lar tashkil qilib, turli shifoxonalar, sanatoriy – kurortlar va boshqa sog'lomlashtirish muassasalar qurish mumkin. Surxondaryo, SHerabod, Sangzor, Darband, Xo'jaypok va boshqa bir qancha daryolarga oqib tushuvchi tog' soyliklari rekreasiya resurslariga boy bo'lib, bu mintaqalarda dam olish oromgohlarini tashkil etish. Shuningdek, Termiz Marvaridi, Jayraxona, G'o'rimbuloq, Omonxon, Xo'jamayxona, Xo'jaypok-ota, Xondjiz, SHarshara-ota va boshqa bir qancha daryolarga oqib tushuvchi tog' soyliklariga olib boruchi turizm infratuzilmalari yaratilsa, turistlarni jalb qilish xizmat turlari ko'proq ishlab chiqilsa.

Birinchi dan, aholini salomatligi yaxshilanadi, ikkinchi dan, shu joy aholisi ish bilan ta'minlanib, iqtisodiy daromat oshadi.

1.2. Ekoturizm resurslarining turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati.

Hozirgi vaqtda Surxondaryo viloyatida ko'pgina tarmoqlar kabi turizm industriyasi ham tez rivojlanib bormoqda. Turistik biznesni mavjud kapital, texnologiya, hamda malakali ishchi xodimlarsiz shakllantirib bo'lmaydi. Buning uchun birinchi navbatda turistik resurslarga ega bo'lish lozim.

Viloyatning ekologik turizm salohiyatini hisobga olganimizda ekologik

turizmni rivojlantirishning asosiy resurslari – 4 faslli tabiat mavsumlari, o‘zining ekologik tizimlariga ega bo‘lgan tabiiy landshaft bio-xilma-xillik turlarning mavjudligidan iborat. Surxondaryo viloyatining ekologik turizmdagi resurslar salohiyatiga alohida to‘xtalganimizda, quyidagi jadvalda ekoturizm resurslarining turistlar tomonidan foydalanish, tavsiflar (1.2.1-jadval)

1.2.1-Jadval

Surxondaryoda turistik resurslardan turistlarni foydalanish, tavsifi²².

Resurslar	Mahalliy sayohatchilar talabi	Xorijiy sayohatchilar-ning talabi	Resurs salohiyati	Foydalani sh darajasi
Rekreasiya va ekologik turizm resurslari	yuqori	o‘rta	yuqori	past
Madaniy va etnografik turizm resurslari	o‘rta	yuqori	yuqori	past
Tarixiy, me‘moriy va arxeologik tanishuv resurslari	o‘rta	yuqori	yuqori	o‘rta
Diniy turizm resurslari	yuqori	yuqori	yuqori	o‘rta
Ekzotik muhit va har xil sarguzasht resurslari	past	o‘rta	yuqori	past
Servis sifati	past	yuqori	past	past

Yuqori jadvaldan ko‘rish mumkinki, viloyatning turistik resurslariga bo‘lgan talab yuqoridir. Shu sababdan kelib chiqib, turistik resurslardan foydalanishga ta’sir etuvchi omillarni har jihatdan tahlil etish o‘ta muhimdir. Surxondaryo 2100 ming gektarga ega bo‘lgan ovchilik – baliqchilik yer maydonlariga ega, ulardan 650 ming. gektarini suv fondi tashkil etadi. Viloyat faunasi 97 turdagi o‘txo‘r hayvonlar, 424 turdagi qushlar, 58 turdagi sudralib yuruvchilar va 83 tur baliqlarga ega. Bulardan, O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobiga” o‘txo‘r hayvonlarning 24 turi, qushlarning 48 turi, sudralib yuruvchilarning 10 turi, baliqlarning 18 turi va 78 turdagi umurtqasizlar kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika instituti ma’lumotlari bo‘yicha, O‘zbekistonda hozirgi kunda 4148 tur o‘simliklar mavjud.

²² Muallif tomonidan tuzilgan

Shulardan, 3000 turlari oliy, yovvoyi o'suvchi o'simliklar, ulardan 9 foizi endemiklardan iborat. O'zbekiston hududining muhofaza etilayotgan tabiiy hududlar tarkibida 2164 km² ni tashkil qilgan 10 ta davlat qo'riqxonasi, 6061 km² ni tashkil etgan 2 ta milliy bog' va noyob turlarga kiruvchi hayvonlarni ko'paytirish respublika markaziy – "Jayron" ekomarkazi, 12186 km² maydonni tashkil etgan 17 ta davlat buyurtmaxonalari mavjud.²³ (1.2.1- ilova)



Keltirilgan ma'lumotlarga qo'shimcha qilib qayd qilishim mumkinki, Surxondaryo viloyati O'zbekiston Respublikasining janubida joylashgan bo'lib, shimoliy sharqdan Tojikiston, janubdan Afg'oniston, janubiy g'arbdan Turkmaniston kabi qo'shni mamlakatlar chegarasida, ekologik turizmning rivojlanishi uchun qulay transport, geografik hududlarida joylashgan. Ekspertlarning ma'lumotiga qaraganda ekoturizm sayyohlik bozorining 10-20 % ini qamrab olgan²⁴.

Turizm iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun, turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlarni joriy qilish muhim sanaladi. Bu borada, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, qulay turizm muhitini yaratish, transport logistikasini rivojlantirish, ichki va tashqi turizm bozorining turli segmentlariga yo'naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilishga ehtiyoj ortib bormoqda. Ushbu ehtiyojlarni qondirish, jahon standartlari talabiga javob beradigan xizmat turlarini yaratishda turizm to'grisidagi qonun hujjatlariga bozor iqtisodiyoti sharoitlaridan kelib chiqib o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni zamonning o'zi ko'rsatib qo'ydi.

²³ O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat ko'mitasi ma'lumotlari asosida

²⁴ Храбовченко. В.В. "Экологический туризм учеб метод пособие. М. Финансы и статистика 2014 й. 208 с

O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 17 iyuldagi “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-son “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021 yil 9 fevraldagi PF-6165-son “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonlari,sohani yangi bosqichga olib chiqishdagi asosiy hujjat hisoblandi²⁵.

Shuning uchun ham bugungi kunda Surxondaryo viloyatida ko‘pgina tarmoqlar kabi turizm industriyasi ham tez rivojlanib ekologik turizmni rivojlantirish va ekologik resurs maskanlariga turistik marshrutlar tuzishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish zarur bo‘lmoqda.

O‘zbekistonlik ekolog olimlarning fikricha, – ekoturizm ma‘rifiy-ma‘naviy tushunchalar ostida ekoturistlarning ekzotik tabiiy hududlarga, ularning hayvonot va o‘simliklar dunyosiga, tabiiy hududlarning tarixiy yodgorliklariga, arxeologik topilmalariga, geologiyasiga, paleontologiya qoldiqlariga sayohatlari kabi tabiat bilan bog‘liq majmualar kiradi.

Ekoturizmning maqsadi – hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun tabiatdan turistik yo‘nalishda oqilona foydalanishdir. Ekoturizmning maqsadini amalga oshirish uchun “O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish Konsepsiyasi” da keltirilgan rejaviy dasturni keltirish kifoya qiladi. Bu konsepsiyada viloyatda ekologik turizmni rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish muhimligi alohida qayd qilish mumkun:

- ekoturizm industriyasini shakllantirish uchun maxsus qonunlarni ishlab chiqish va ularning huquqiy mexanizmini yaratish;

²⁵ Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 18 июлдаги “Туризм тўғрисида”ги ЎРҚ-549-сон Қонуни. - <https://www.lex.uz/docs/4428097>

- ekoturistik fan, ta'lim va amaliyotning nazariy asoslarini ishlab chiqish;
- aholining ekologik ongi va madaniyatini ekoturizm orqali o'stirish;
- ekoturizm yo'nalishidagi ta'lim va tarbiyani yo'lga qo'yish;
- ekoturizm bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash;
- ekoturistik ob'ektlarni har tomonlama baholash va ularning kadastrini olib borish;

- ekoturizm monitoringi va istiqbolini olib borishni yo'lga qo'yish;
- milliy davlat hududlarini ekoturizm bo'yicha rayonlashtirish;
- davlatlarning va xalqaro jamiyatning ekoturizmga oid taktik reja va strategik dasturlar va tadbirlarini ishlab chiqish;
- biologik xilma-xillikni saqlash.

Qayd qilingan vazifalarni bajarishda quyidagi ekoturistik tamoyillarni ya'ni ekologik munosabatlarni turizm orqali tartibga solishga yo'naltirilgan qoidalarga qattiq, ma'suliyat bilan rioya qilish talab qilinadi:

- ekoturizmدا tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish masalalarining ustivorligi;

- ekoturizmning tarixiy, madaniy va boshqa turizm turlari bilan bog'langanligi;

- turizm va servis sohasi yo'nalishidagi barcha ta'lim muassasalarida ekoturistik o'quv kiritilishining maqsadga muvofiqligi;

- mahalliy aholining ekologik ongi va madaniyatini o'stirishda ekoturizmni jalb qilish zaruriyati;

- tabiatdan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilishning mazmunini ekoturistik marshrutlarda aks ettirish;

- davlat, jamiyat, mahalliy boshqaruv idoralarining ekologik turizmdan manfaatdorligi;

- ekoturizmда ekologik ijtimoiy-iqtisodiy manfaatdorlikning yagonaligi;
- ekoturizmда milliy g'urur va iftixorni shakllantirishning zarurligi.

Qayd qilingan tamoyillarning bajarilishi O‘zbekistonda ekologik turizmni jadal rivojlantirishning asoslarini ta’minlaydi.

Ekoturizmni rivojlantirish bo‘yicha “O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish Konsepsiyasi” qabul qilingan. Ushbu konsepsiyaning 1.4. bandida – ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari yechimini topishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalari qayd qilingan. Ular quyidagilar:

- ekoturizm ob’ektlarida aholini ish bilan ta’minlash, ijtimoiy muhofaza qilish muammolarini hal qilish;
- ekoturizm qadamjoylarida kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish orqali qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish, turistik infratuzilmalarni hosil qilish;
- ekoturizmning jahon talablariga javob beraoladigan moddiy – texnik, axborot–tahliliy bazasini yaratish xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish;
- ekoturizm maskanlarini elektr energiyasi va issiq suv bilan ta’minlash maqsadida ekologik toza, qayta tiklanuvchi muqobil energiya qurilmalari yordamida foydalanishni keng yo‘lga qo‘yish.

Ekologik turizm tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, sohasida, ona Vatanimizning landshafti, hayvonot va nabotot dunyosiga boy va betakror tabiati bilan tanishtirish, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini bog‘lash, mamlakatlar va turli xalqlarning biri-birini kengroq bilishi, balki shu bilan birga O‘zbekiston hududida qirilib ketishi arafasida turgan noyob hayvonot va nobotot dunyosini saqlash va ko‘paytirish maqsadida qo‘riqxonalar (Surxon, Nurota, Hisor, Baday-To‘qay, Zarafshon, Qizilqum, Chotqol, Zomin, Kitob) parvarishxonalar (Jayron) ekomarkazi, Sayhun xo‘jaligi) tarkibida va atrofida jahon talablariga javob beraoladigan milliy tabiiy bog‘larni amalga oshirish orqali muhofaza qilinadigan hududlarda ekoturizm ob’ektlarining moddiy-texnika bazasini yaratish uchun qo‘shimcha chet el investatsiyalarini jalb qilishdan iboratdir.




Nurota qo‘riqxonasidagi arharlar




Cho‘lqum echkemari

1.2.1-rasm. O‘zbekiston hududida qirilib ketishi arafasida turgan noyob hayvonot va nobotot dunyosini rasmi²⁶.



1.2.2-rasm. Ekologik turizmni noyob hayvonot dunyosi resurslari²⁷.



1.2.3.Rasm. Ekologik turizmni noyob qushlar dunyosi resurslari²⁸.

²⁶ Pardaev A.X., Norchaev A.N., Rabbimov E.N. Ekologik turizm. -O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2011.

²⁷ Pardaev A.X., Norchaev A.N., Rabbimov E.N. Ekologik turizm. -O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2011.

²⁸ Pardaev A.X., Norchaev A.N., Rabbimov E.N. Ekologik turizm. -O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2011

Ushbu (1-2-3-rasm) rasmlarda ekologik turizmni noyob, hayvonat va qushlar dunyosi resurslari keltirildi.

O‘zbekistonda muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda ekoturizmni rivojlanishini ta’minlaydigan asosiy chora va tadbirlar “O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish Konsepsiyasi”da mukammal holatda berilgan. Ekoturizmning dunyoda tutgan o‘rni, mavqei hamda O‘zbekistondagi salohiyati va uning rivojlanishiga e’tiborga olgan holda “Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi” Vatanimizning muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarida ekoturizmning rivojlanishini ta’minlaydigan quyidagi asosiy vazifalarni ishlab chiqish zarur:

Vatanimizning ekoturizmning taraqqiyot salohiyati nihoyatda katta va uni jadal sura’tlar bilan rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Faqat bu salohiyat va imkoniyatlardan jahonda ekoturizmi taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda oqilona foydalanish hamda ilmiy asosda xatolarsiz amalga oshirish lozim.

1.3.Turizm infratuzilmasini shakllantirishda ekoturistik resurslarning o‘rni

Turizm o‘zining ko‘p qirrali tarkibi bilan jamiyat hayotining barcha sohalariga faol ta’sir o‘tkazib kelmoqda. U iqtisodiyotning ko‘pgina jabhalarini rivojlantirishga imkon tug‘diradi. Jumladan, transport tarmoqlari, aloqa, yo‘l qurilishi, mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish korxonalari, kommunal xo‘jaligi, maishiy xizmat ko‘rsatish, servis sohasi, savdo tarmoqlari va h.k. Turizmni rivojlantirish bir vaqtning o‘zida o‘ziga xos dam olish, hordiq chiqarish, ko‘ngil-ochar maskanlar industriyasini tashkil etib, o‘z o‘rnida sayyohlarga sifatli xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bir qator sohalarni qamrab oladi.

Infrastruktura (lot. Infra pod+struktura) rus tiliga tarjimasida pod struktura, o‘zbek tilida esa “infra” so‘zidan iborat bo‘lib, “tuzilma ostidagi tuzilma” degan ma’noni anglatadi. Uning umumiy tuzilmasini iqtisodiy yoki siyosiy hayot tashkil etadi. U butun bir iqtisodiy va siyosiy xarakterdagi bir maromda kechadigan hayot faoliyatini ta’minlashga qaratilgan. Iqtisodiy infratuzilmaga transport, aloqa,

kommunikatsiya, maishiy xizmat, ta'lim va kommunal xo'jalik, turar-joy, turmush tarziga o'rgatish, aholining birgalikda hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarini qondirish majmuidir²⁹.

Boshqacha aytganda, infratuzilma aholi hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan xo'jalik va madaniy obyektlar, uning xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarini tashkil qiluvchi (yo'llar, ko'priklar, kanallar, omborlar, transport, aloqa, energetika, suv ta'minoti, kommunal xo'jaligi, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliyaviy tashkilotlar va h.k.) mahalliy boshqaruv majmuasi bo'lib hisoblanadi.

Turizm infratuzilmasini shakllantirishda infratuzilmasi ob'ektlari orasida joylashtirish vositalari jumladan, mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish vositalari asosiy turizm daromadini shakllantiruvchi korxonalar hisoblanadi. Ekologik turizm ob'ektlari shahar markazidan uzoqda bo'lgani uchun, 2019 yildan boshlab mehmonxonalardan tashqari oilaviy mehmon uylari va xostellar, kempinglar soni jadal suratlarda oshib bormoqda. Bundan tashqari turoperatorlar, gid-tarjimonlar, turistik transport vositalari, ovqatlanish korxonalari soni ham jadal suratlarda ortib bormoqda (1.3.1-jadval).

1.3.1-jadval

Surxondaryo viloyatida turistik infratuzilma ob'ektlari³⁰

Resurs	Turlari
Joylashtirish vositalari	Mehmonxonalar, xostellar, talabalar turar joylari, oilaviy mehmon uylari, bolalar yozgi oromgohlari, sanatoriylar, dam olish maskanlari va turistik bazalar
Ovqatlanish korxonalari	Restoran, kafe, bar, choyxona, to'yxonalar
Transport korxonalari	Avtobus, mikroavtobus, elektromobillarga ega bo'lgan turistik tashkilotlar va xususiy transport korxonalari
boshqalar	Turoperatorlar, turkompaniyalar, gid-tarjimonlar

²⁹ X.M. Mamatqulov «Turizm infratuzilmasi» Ma'ruzalar kursi. SamISI. 2019 b.4

³⁰ Z.N.Turayev Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiyasi –Tashkent-2022

Shunday qilib, turizm infratuzilmasi deyilganda turistik mahsulotlarni shakllantirishda (ishlab chiqarishda) ishtirok etuvchi tarmoqlar (tabiiy resurslar, transport, aloqa axborot vositalari, kommunikatsiya tarmoqlari, energetika, suv ta'minoti, maishiy xizmat ko'rsatish sohasi, kommunal xo'jaligi, ta'lim, sog'liqni saqlash, joylashtirish vositalari, savdo xizmati ko'rsatish, ovqatlanish korxonalari, madaniy va sport inshootlari, moliyaviy tashkilotlar, huquqni himoya qiluvchi idoralar va boshq.) va unga qo'shimcha turizm sohasini boshqaruvchi majmua tushuniladi. Turizm infratuzilmasini shakllantirishda ekologik tabiiy resurslardan foydalanish parallel ravishda tegishli tashkiliy va huquqiy shakllarini tashkil etishda namoyon bo'ladi.

Tabiatni boshqarishga davlat hokimiyatining barcha bo'g'inlari qonun chiqaruvchi, ijroiya, sud hokimiyati bevosita aloqador. Ularning har biri o'z funksiyalarini bajaradi va tabiatdan foydalanishni boshqardai.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat vakolatiga: davlat ekologik siyosatining asosiy yo'nalishini belgilash; respublika ekologik dasturlarini tasdiqlash, tabiiy muhitni boshqarish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi organlari faoliyatini tashkil etish, tabiiy resurslardan foydalanish va xavfsizligini ta'minlash tartibini belgilash; favqulodda ekologik vaziyat va ekologik halokat xududlarining huquqiy tizimini ta'minlash va boshqalar. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Oliy Majlis tarkibida tabiatdan foydalanish va tabiiy resurslar bo'yicha qo'mitaga ega. Ijroiya hokimiyat vakolati ekologiya siyosatini amalga oshirish, ekologik dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, tabiat muhofazasi bo'yicha vazirliklar va muassasalar faoliyatini koordinasiyalash, tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatishning normativlarini tasdiqlash, tabiatdan foydalanish to'lovlari tartibini belgilash, alohida muhofaza qilinadigan hududlarni tashkil etish, ekologik ta'lim va boshqalar kiradi. Ijroiya hokimiyati tarkibiga tabiat muhofazasini bajaruvchi va tabiatdan foydalanuvchi quyidagi bo'linmalar kiradi: yer resurslari va yer tuzish qo'mitasi, o'rmon xo'jaligi qo'mitasi, gidrometeorologiya va atrof muhit monitoring xizmati, geologiya qo'mitasi, qishloq xo'jalik vazirligi va boshqalar.

Tabiat muhofazasi bo'yicha maxsus vakolatli asosiy organlariga tabiat

kompetensiyasiga quyidagilar kiradi: tabiat muhofazasi sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish; ekologik xavfsizlik, biologik xilma-xillikni asrash, ekologik nazorat, davlat ekologik ekspertizasi, o'z ixtiyoridagi davlat qo'riqxonalari va boshqa alohida muhofaza qilinadigan hududlarni boshqarish hisoblanadi.

Surxondaryo viloyatining boshqa hududlarda uchramaydigan ekzotik tabiati, xilma-xil landshaftlari, flora va faunasi butun turistik regionning jozibadorligini belgilovchi asosiy omillardir. Hozirda turizm infratuzilmasini shakillantirishda to'rt xil ekoturizm turlari va resurslari mavjud. Bular.

1. Ilmiy turizm. Bunda turistlar dala sharoitida kuzatish ishlari olib boradilar, tabiatda izlanish ishlarida ishtirok etadilar. Masalan Lotin Amerikasi mamlakatlaridan biri Kolumbiyada, u yerdagi boy qo'shlar olamini o'rganish uchun "Kolumbiya qushlari" degan ekoturlar o'tkazilib, unda boshqa davlatlardan kelgan ornitologlar ham qatnashib ilmiy izlanishlar olib boradilar. Bunda turistlar aktiv harakat usullari qo'llab, tabiiy go'zallikdan bahra oladilar. Ilmiy turizmga chet elga bo'lgan ilmiy-tekshirish ekspeditsiyalari va tabiiy fakultetlarda o'qiyotgan talabalarning dala praktikasi ham kiradi.

2. Tabiat tarixini o'rganish turlari. Bu atrof muhitni va mahalliy madaniyatni o'rganish uchun qilingan sayyohatdir. Ular ko'pincha qo'riqxonalar va milliy bog'larda takshil etilishi mumkin. Bu turlar tabiat fenamentlari bor joylarda ham tashkil qilinishi mumkin. Bunga maktab o'quvchilarining poyodlari ham kirib, unda o'qituvchi, o'quvchilarga o'tilgan joylarning tabiati tarixi to'g'risida hikoya qilib beradi.

3. Sarguzasht turizmi. Bu tur turizm barcha aktiv harakatli turlarini o'zida jamlangan sayohatlarni o'z ichiga oladi, hamda tabiatda dam olish turlari ham bunga kirib ulardan maqsad yangi xissiyotlarni sezish, taassurotlarni boshdan kechirish, turistlarni jismoniy formasini yaxshilash va yangi sport muvoffaqitlarga erishishidir. Bu tur turizmga alpinizm, qoyalarda yurish, tog' va piyoda yurish turizmi, suv, chang'i va tog'-chang'i turizmi, otda yurish turizmi kiradi.

4. Alohida muhofaza etiladigan tabiat hududlarga sayohat (AMETHS) etish ekoturizm asosiy turi hisoblanadi. Ekoturizm mahalliy aholining o'z hududlarida ijtimoiy – iqtisodiy, rivojida ishtirok etib, turizm obyektlari ichida tabiiylikni saqlab, turistlarni ekologik bilimlarini oshirib borishiga xizmat qiladi.

Ekoturizmning rivoji natijasida, turizm infratuzilmasida uch asosiy xususiyati paydo bo'lib, ular mahalliy aholining ma'naviy kayfiyatiga, iqtisodiy ahvoriga to'g'ridan-to'g'ri yoki boshqa jihatdan o'z ta'sirini ko'rsatadi. Aholining, ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik xususiyatlari oshadi.

Ijtimoiy jihatdan olib qarasaq, ekoturizmning ijobiy tomoni shundaki, u mahalliy aholiga o'zining yurti tabiatini muhofaza qilgani uchun iqtisodiy samara beradi, muhofaza etilayotgan hududlarida hamkorlikda ish olib boriladi.

Iqtisodiy jihatdan, turizmning iqtisodiy rivojlangan davlatlarda amaliy ahamiyati ko'pchilikka tanish. Turistik faoliyat natijasida kelayotgan iqtisodiy foyda, ko'p sabablar natijasida paydo bo'ladi va yuqori miqdorlarga yetishi mumkin. Turistik resurslardan tashqari, bu yerda katta rolni turizm infrastrukturasini, reklama, xizmat ko'rsatish, kelayotganlar soni, turistlarning iqtisodiy darajasi, soliqlar va boshqalar egallaydi.

Ekologik jihatdan, muhofaza etiladigan hududlarda tabiatga sayohat turizmini rivoji, tabiatga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir etishi mumkin. Bir tomondan turizm rivoji dunyoning ko'p qismlarida nodir ekosistemalar va turlari himoya qilish uchun kuchli omil bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro ekoturizm rivojlanishi tarixida uning shakllanishida tabiatni himoya qilishdagi rolini ko'rsatuvchi ko'plab misollar ko'rsatish mumkin. Turizm muhofaza etiladigan ko'plab hududlarni iqtisodiy holatini ko'tarib, uning tabiatini ekologik holatini yaxshilaydi. Ekoturizmda turizmni boshqa turlariga qaraganda kamroq mablag' sarf etib ko'proq foyda olinadi. Shuning uchun uning iqtisodiy samaradorligi ancha kattadir.

Ekoturistlar uchun qiziqarli bo'lgan obyektlar, ya'ni alohida muhofazaga olingan hududlar doirasidagi turli tabiiy va madaniy vujudga kelgan landshaftlar, o'simlik va hayvonot olami resurslari, kam uchraydigan va kamayib borayotgan

organizmlar genofondi, ajoyib tabiiat komplekslari, tabiat yodgorliklari turizm infratuzilmasini rivojlantirishning muhim asosi hisoblanadi. Surxondaryo viloyatida ekoturizm rivojlanishi tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni vatanimizga jalb etish, noyob o'simliklar va hayvonot dunyosini saqlash, ko'paytirish muammolarini hal qilishga, balki mahalliy aholini ish bilan ta'minlab iqtisodiyotini rivojlantirishiga katta hissa qo'shadi. Ekoturizm faoliyatidan kelib chiqib alohida muhofaza etilayotgan tabiiy hududlarda amalga oshirish katta ahamiyatga ega. Mahalliy, aholini ehtiyojini qondirish ko'proq tabiatdan foydalanish turlariga borib taqaladi (1.3.2 jadval).

1.3.2 Jadval

O'zbekistonning maxsus qo'riqlanadigan tabiiy hududlarida turizmni tashkil etish xususiyatlari³¹

Asosiy maqsadlar	Tashkil etish asoslari	Xuquqiy asoslari
<ul style="list-style-type: none"> - mahalliy va xorijiy turistlarni jalb etish; - yangi ish o'rinlarini yaratish; - aholini yashash darajasini oshirish; - bioxilmaxillikni saqlash; - turizm vositasi orqali yangi tabiiy zonalar yaratish; - mahalliy aholini tabiat resurslaridan foydalanishini kamaytirish va ularga alternativ daromat manbalarini yaratish; - tabiiy zonalarini byudjetdan tashqari vositalar orqali moliyalashtirish; - insonlar dam olishini imkoniyat yaratish; - ma'lum mintaqalarning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish. 	<ul style="list-style-type: none"> - keluvchilar tomonidan tabiiy zonalar bioxilmaxilligiga bulgan salbiy ta'sirlariga yo'l qo'ymaslik; - keluvchilarni tabiiy zonalar bo'lgan hatti harakatini kuzatishni ta'minlash, turistik marshrutlarda turli tartiblarni joriy etish; - tabiiy zona hududlarida turistik faoliyatni iqtisodiy samadorligini ta'minlash; - tabiatni saqlash tadbirlari va aksiyalarida qatnashish va b. 	<ul style="list-style-type: none"> - O'zbekiston Respublikasining "Turizm tug'risidagi" qonuni (17.07.2019); - O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish" qonuni (9.12.2017); - Hammasi bo'lib, 15 ta tabiatni muhofaza qilishga oid qonunlar, 550 ta qonun asosidagi tabiatni qo'riqlash ahamiyatiga ega aktlar, standartlar amal qilmokda.

³¹ Manba: Tuxliev N.T., Abdullaeva T. Menejmenti organizatsiya biznesa Respublike Uzbekistana. T: GNI "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" 2021.

O'zbekistonning tabiiy sharoiti va ularning ekologik holatini inobatga olib, turistik obyektlarni o'rganish va aniqlash, turistik yo'nalishlarni belgilash, ularning hududiylik va majmuaviylik jihatlaridan kelib chiqqan holda tabiiy xizmat ko'rsatish sohasini yo'lga qo'yish shu kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Viloyatning turizm iqtisodiyoti uchun yaroqli bo'lgan yozlik mavsumda tog' zonalarida aprel oyidan oktyabrgacha 7 oyga cho'ziladi. Piyoda yuruvchilarning bir guruhi (10 odam) uchun kirish bahosi har bir kishiga bir kunga 50 dollar, otda yuruvchilar uchun 70 dollar deb hisoblansa, bir kunda 10 kishi x 50 \$ = 500 \$ yoki 10 kishi x 70 \$ = 700 \$ daromat olish mumkin. Ushbu xizmat turlarini, Termiz tumani "Ot-chapor" masivida, Boysun, Sariosiyo va SHerobod kichik turizm zonalarida tashkil qilib o'nlab qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish salohiyati mavjud.

I-bob bo'yicha xulosa

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosa va takliflar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Ekologik turizm bo'yicha Xorijiy va respublikamiz olimlar tomonidan berilgan ta'riflari o'rganib chiqildi. O'rganish natijasida Surxondaryo viloyati Ekoturizm resurslari turlarga va tasniflanishiga ajratildi.

2. Ekoturizmni rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribalari va uni mamlakatimizda qo'llashning iqtisodiy afzalliklari, o'rganildi. Ekologik turizm tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, sohasida, ona Vatanimizning landshafti, hayvonot va nabotot dunyosiga boy va betakror tabiati bilan tanishtirish, jahon talablariga javob beraoladigan milliy tabiiy bog'larni amalga oshirish orqali muhofaza qilinadigan hududlarda ekoturizm ob'ektlarining moddiy-texnika bazasini yaratish uchun tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqildi.

3. Tadqiqot davomida turizm infratuzilmasini shakllantirishda Surxondaryo viloyati tabiati rang – barang bo'lib, yilning issiq yoz oylarida, sovuq qish va kuz fasllarida ham, tabiatni ilk uyg'onish vaqti bahor fasllarida dam olishni tashkil

etishni imkoniyatlaridan mavjud.samarali foydalanib. Sariosiyo, Boysun,Oltinsoy va SHerabod tumanlarida joylashgan to'glardagi "Kichik turizm zonalari" Zovboshi, Sangardak, Ko'htang tog' tizmalarida dam olish qishki sport turtashkil qilish imkoniyatlaridan foydalanish.

Sog'likni tiklash manbasi hisoblangan mineral suv va balchiqlari, yer osti suvlari kimyoviy tarkibi, tibbiy – biologik va boshqa xususiyatlariga ko'ra bir – biridan farq qiladigan.Termiz tumanidagi, oltin gugurtli mineral suv, Boysun tumanidagi "Omonxona" shifo baxsh suvi, Oltinsoy tumanidagi "Xo'jayi-pok" oltin gugurtli mineral suv, SHerabod tumanidagi "G'o'rin buloq" mineral suvi, "Xo'jayi-kon tuz g'ori"laridan sanatoriya-kurort, profilaktika muassasalaridan keng foydanib.Ushbu joylarda yashovchi aholi xonadonlarida "Mehmon uy"lar tashkil qilib, turli shifoxonalar, sanatoriy – kurortlar va boshqa sog'lomlashtirish muassasalar qurish orqali. Surxondaryo, SHerabod, Sangzor, Darband, Xo'jaypok va boshqa bir qancha daryolarga oqib tushuvchi tog' soyliklari rekreasiya resurslariga boy, bu mintaqalarda dam olish oromgohlari "Mehmon uylari" tashkil etish. Shuningdek, Termiz Marvaridi, Jayraxona, G'o'rimbuloq, Omonxon, Xo'jamayxona, Xo'jaypok-ota, Xondjiz, SHarshara-ota va boshqa bir qancha daryolarga oqib tushuvchi tog' soyliklariga olib boruchi turizm infratuzilmalari yaratilsa, turistlarni jalb qilish xizmat turlari ko'proq ishlab chiqilsa.

Birinchidan, aholini salomatligi yaxshilanadi, ikkinchidan, shu joy aholisi ish bilan ta'minlanib, iqtisodiy daromat oshadi.

Ekoturistik resurslarning Surxondaryo viloyati iqtisodiyotidagi o'rni ishlab chiqildi. Shu sababli turizm infratuzilmasi qishloqqa kirib borishi qishloq aholisi uchun, ularning iqtisodiy manfaati ko'rishida, tabiatning nodir burchaklarini saqlab qolgan holda, undan unimli foydalanish yo'li bilan iqtisodiy foyda olish yo'lini ko'rsatildi.

II-BOB.SURXONDARYO VILOYATIDA EKOTURIZM RESURS-LARIDAN FOYDALANISH ShART-ShAROITLARI VA HOLATI

2.1. Surxondaryo viloyatida turizm rivojlanishining iqtisodiy tahlili

Hozirgi kunda Surxondaryo viloyatida turizmning milliy modelini shakllantirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Ushbu modelda ta'kidlanishicha viloyatda rivojlantirilayotgan turistik bozor boshqa har qanday bozorlar kabi viloyatning ijtimoiy– siyosiy va iqtisodiy vaziyatiga ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, asosan, xususiy va tijorat kompaniyalari turistlarga xizmat ko'rsatadi. O'zbekistonda turizm sohasiga mustaqillikning dastlabki davridanoq asos qo'yilgan edi. Biroq, bu sohadan keladigan daromadlarning hajmi 7-9 mln. kishini, bunda chet ellik turistlarning miqdori atigi 1,3-1,8 mln kishini tashkil etardi xolos. O'zbekistonning turistik sohasi chet ellik turistlarga faqatgina 2016 - yilgacha 50 dan ortiq xizmat turini taklif etdi. Turkiya, Italiya va Ispaniya kabi mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich 250-400 ni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini rivojlanishini beshta bosqichga bo'lib o'rganilgani ko'rish mumkin³²

Birinchi bosqich (o'z ichiga 1992 - yilni oladi). Ushbu bosqich respublikamizda milliy turizmning dastlabki shakllantirilishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda turizm infratuzilmasida yetakchi hisoblangan “Oz'bekturizm” Milliy Kompaniyasiga asos solindi.

Ikkinchi bosqich (1993-1995 - yillar). Bunda turizmning milliy rivojlanish modeli ishlab chiqildi. Ushbu bosqich turistik xizmatlar ko'rsatish hajmini “O'zbekturizm” milliy kompaniyasi doirasida hal etish imkoni bo'lmay qoldi. Kompaniya turistik operatorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish maqsadida Germaniya (Frankfurt-Mayn), Angliya (London), AQSh (Nyu-York), Birlashgan Arab Amirliklari (Sharja) va Rossiya (Moskva) kabi mamlakatlarda o'zining vakolatxonalarini ochdi.

³² Fayzieva Sh.R. O'zbekistonda turizm rivojlanishining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Nomzodlik dissertasiyasi. O'zMU, 2016 y

Uchinchi bosqich (1995-1997 - yillar). Bunda turistik xizmatlar sohasida xususiylashtirish jarayoni boshlandi. 1996 yilning boshlarida “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi tizimidagi turistik obyektlar umumiy miqdorining 90% ga yaqini davlat tasarrufidan chiqarildi.

To‘rtinchi bosqich (o‘z ichiga 1998 - yilni oladi). Bu bosqichda eksport salohiyatini oshirish, valyuta, turistlar, investitsiyalarning barqaror oqimini ta‘minlash uchun imkoniyat yaratildi. Respublikada milliy turizmni jahon andozalari darajasida shakllantirish, turizmga bilvosita tegishli bo‘lgan xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini, xususan, turistlarni xorijdan kutib oladigan chegara, bojxona va aeroport xizmatlarini qayta shakllantirish boshlandi.

Beshinchi bosqich (2016- yilidan so‘ngi yillarni oladi.). Ushbu bosqichda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizmni rivojlantirishning davlat dasturi to‘g‘risidagi” Farmoni nafaqat mamlakatdagi milliy va xalqaro turizmning tutgan o‘rnini mustahkamlash uchun siyosiy asosni shakllantirdi, “Turizm to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi buning natijasida turizm sohasida faoliyat ko‘rsatishining huquqiy asoslari yanada takomillashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatning davlat va jamiyat rivojlanishi istiqbolini strategik rejalashtirish tizimiga yangi yondashuvlarni boshladi. Surxondaryo viloyatining turizm salohiyati, hududning noyob tarixiy-madaniy va me‘moriy obidalari bilan turistlarni keng tanishtirish, zamonaviy turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish, turizm xizmatlari sifatini takomillashtirish, ichki turizmni faollashtirish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda aholi daromadlari o‘sishini rag‘batlantirish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-maydagi 332-son qaroriga asosn 2020-2021-yillarda Surxondaryo viloyatida turizmni rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar dasturi qabul qilindi³³. 2020-2021-yillarda Surxondaryo viloyatida

³³ Davlat boshqaruvi asoslari 2020-2021-yillarda Surxondaryo viloyatida turizmni rivojlantirish bo‘yicha

turizmni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi, SWOT- tahlili orqali o'rganildi. Ushbu ma'lumotlar (2.1.1.jadval va 1.-ilova) tahlillarida keltirigan.

2.1.1.jadval

Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish imkoniyati SWOT-tahlili³⁴

Kuchli jihatlari	Imkoniyatlari
<p>-Janubiy va Markaziy Osiyoni bir biriga bog'lab turuvchi qulay transport yo'lagida joylashganligi.</p> <p>- noyob flora va fauna turlari mavjudligi;</p> <p>-Hisor, Ko'hitang, Boysun, Bobotog' tog'lari yonbag'rlarida rekreatsiya resurslaridan foydalanish imkoniyati yuqoriligi;</p> <p>- ko'plab daryo, ko'llar, suv omborlari mavjudligi;</p> <p>- qadimiy sivilizatsiya o'choqlari, ibtidoiy odamlar manzilgohlari, mamlakatimizdagi eng qadimiy ilk davlatchilik tuzilmalari paydo bo'lganligini dalillovchi arxeologik resurslarning mavjudligi;</p> <p>- ellinizm, buddaviylik, islom madaniyatlariga oid turistik resurslarga boyligi; o'ziga xos nomoddiy me'ros, milliy an'analar mavjudligi</p>	<p>- diniy va ziyorat turizmini rivojlantirish uchun Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlari turizm bozorlarini maqsadli bozor segmenti sifatida o'zlashtirish mumkin;</p> <p>- suv omborlar, ko'llar atrofida ekoturizmning tegishli turlarini rivojlantirish;</p> <p>- tog' va tog'oldi zonalarida kichik turizm zonalarini tashkil etish;</p> <p>- taklif etilayotgan kichik turizm zonalarida turistik-rekreatsiya klasterlarini tashkil etish.</p>
Kuchsiz jihatlari	Tahdidlar
<p>- hududning tabiiy, tarixiy-madaniy resurslari o'zlashtirilish darajasi pastligi;</p> <p>- turistik marshrutlardagi yo'llar, yo'ldosh infratuzilma talab darajasida shakllantirilmaganligi; - tumanlarda turizm infratuzilmasi ob'ektlari rivojlanmaganligi;</p> <p>- mahalliy va xorijiy investorlar uchun investitsiya muhiti qoniqarli emasligi; turizm sohasi korxonalarida kasbiy malakaga ega mutaxassislar yetishmasligi.</p>	<p>- siyosiy va iqtisodiy inqirozni boshdan kechirayotgan Afg'oniston bilan chegaradoshligi;</p> <p>- rekreatsiya imkoniyati yuqori hududlardan infratuzilmaning yaxshi emasligi sababli mahalliy aholining qo'shni viloyatlarga dam olish, sog'lomlashtirish maqsadlarida chiqib ketishi;</p> <p>- xizmatlar sifatining barqaror emasligi;</p> <p>- qisqa muddatli dam olish maskanlarida bo'sh o'rinlar haqida axborotlarning yetishmasligi</p>

O'tkazilgan SWOT- tahlili orqali tabiatni asrab qolishdek og'ir muammoni yechishda insonni ekologik savodxon, ekologik madaniyatli qilib tarbiyalashda ham ekoturizmning ahamiyati beqiyosligi aniqlandi.

³⁴ Z.N.Turayev Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi –Tashkent-2022

Ekologik savodxonlik va ekologik madaniyatning asosi ekologik ong hisoblanadi. Ekologik ong tabiatni asrab-avaylash, unga ongli munosabatda bo‘lishi, resurslaridan me‘yorida foydalanish, tabiat inqirozining oldini olish eng zaruri, atrof-muxitni doimo toza saqlashda namoyon bo‘ladi³⁵. Insonda ekologik bilim va ekologik madaniyatni shakllantirishda quyidagi tamoyillar ma‘nosini o‘rganish, tushunish va amaliyotda qo‘llash tushuniladi:

1. Tabiatni–“Ona yer” deb ardoqlash.
2. Bizga ma‘lum bo‘lgan “Olamda” birorta ham Yer sayyorasining tabiatiga o‘xshash tabiat va xayot shaklining mavjudligi aniqlanmaganligi;
3. Tabiatning iqtisodiy ahamiyati deyilganda,undagi resurslardan moddiy manba sifatida foydalanishni tushunish;
4. Tabiatning ilmiy ahamiyati deyilganda insonning barcha bilimlari negizida tabiatning jarayonlari asos bo‘lishi;
5. Tabiatning sog‘lomlashtirish ahamiyati deganda sof tabiat boyliklari ning va shifo beruvchi tabiiy modda va jarayonlarining inson salomat ligiga ijobiy ta‘sir etishi;
6. Tabiatning tarbiyaviy ahamiyati deganda sof,haqiqiy tabiatning kishilarda olijanoblik,xushfellik,vatanparvarlik,ulug‘vorlik, muloyimlik kabi axloqiy xususiyatlarini uyg‘otish va shakllantirish xususiyatlari tushuniladi;
7. Tabiatning estetik ahamiyati deyilganda-insondagi barcha go‘zallik, mukammallik,musiq,tasviriy san‘at,kuy-navo xislari va ularga bo‘lgan ehtiyojlar tushuniladi;
8. Tabiat-inson-jamiyat yaxlit,bir yagona tizimdir.

Qayd qilingan tamoyillardan ekoturizmni rivojlantirishda foydalanish maqsadli bo‘ladi va muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, hayotda ham, har qanday ishlab chiqarish sohasida ham ekologik bilim va ekologik madaniyatning shakllanishida mamlakatimizda ekologik turizmni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

³⁵ Храбовченко В.В. Экологический туризм. Москва, “Финансы и статистика”, 2013, 172 стр.

Ekologik huquq, ekologik savodxonlik va ekologik bilim har–bir ishlab chiqarish yoki ta’lim sohasiga moslashtirilmaydi balki, insonning komil inson bo‘lib yetishiga da’vat qiladi.

Ekoturizmning o‘rnini belgilashda, insoniyat oldidagi ekologik inqirozni to‘xtatish va bartaraf qilishning eng samarali yo‘li umuminsoniyatda ekologik huquq, ekologik tarbiya va ekologik bilimni shakllantirishdir. Ekoturizmga ekologik tarbiya, ekologik bilim va madaniyatni shakllantirishda birinchi navbatda ekologik boshqaruv tizimini ishlab chiqish zarur bo‘ladi.

Ekoturizmning mamlakat ijtimoiy–iqtisodiy hayotidagi o‘rnini belgilashda yuqoridagi keltirilgan ma’lumotlar, tadqiqotlar natijasida quyidagi umumlashgan xulosalar kelib chiqadi.

1. Turistlar bilimini, madaniyatini, ma’naviyatini umummadaniy, tabiiy ilmiy, ekologik bilim va ekologik xavfsizlik bilimlari bilan tabiatning o‘zida boyitish va shakllantirish;
2. “Shahardagi” stress-charchoq holatdan chiqish va ehtiros, hissiyotlarni tiklash, sog‘lomlashtirish;
3. Turistlarda notanish xalqlarning milliy yashash tarziga, milliy urf-odatlariga, marosimlariga, vataniga do‘stona mehr-oqibatlarini shakllantirish³⁶.

Shuning uchun ham ekologiya huquqining maqsadi-hozirgi va kelajak avlod uchun tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish doirasidagi jamiyatning ekologik munosabatlarini huquqiy tartibga solish hisoblanadi.


2.2. Surxondaryo viloyatidagi ekoturistik ob’ektlarning holati

Hozirgi vaqtda ko‘pgina tarmoqlar kabi Surxondaryo viloyatida turizm industriyasi ham tez rivojlanib borayotgan soha hisoblanadi. Turistik biznesni mavjud kapital, texnologiya, hamda malakali ishchi – xodimlar orqaligina shakllantirib bo‘lmaydi. Buning uchun birinchi navbatda turistik obektlarga ega

³⁶ Храбовченко В.В. Экологический туризм. Москва, “Финансы и статистика”, 2013, 172 стр.

bo'lish lozim. Surxondaryo viloyati ekologik turistik resurslar asosini rekreatsiya resurslari tashkil etadi.

Rekreatsiya resurslari bu - turli komponentlar birikmasidan iborat, insonning dam olishi va davolanishi ehtiyojlarini qondirishda xizmat qiladigan vositalardir. Kelib chiqishi va foydalanish xususiyatlariga ko'ra rekreatsion resurslar ikki guruhga ajratishimiz mumkun. Buni quyidagi chizma yordamida tasniflaymiz.



2.2.1-rasm. Turistik resurslar tasnifiga yondoshuvlar³⁷

Undan tashqari, rekreasion resurslarni qo'yidagi asosiy belgilariga ko'ra turistik resurslar tasniflanadi. Tabiiy va iqtisodiy ahamiyatiga asosan, u ikkiyoqlama xususiyatga ega, bir tomondan tabiiy kelib chiqishi bilan bog'liq, ikkinchi tomondan turizm iqtisodiy ahamiyatida aks etadi. Tabiiy resurslarni guruhlanishni quyidagi chizma yordamida tasniflaymiz.

³⁷ Ibadullaev N.E. Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misolida). SamISI, 2019. -77 b;

1. Kelib chiqishiga ko'ra:
<ul style="list-style-type: none"> • tabiiy - (geologik, iqlimiy, gidrologik, termal suvlar); • biologik – tirik tabiat (tuproq resurslari, flora, fauna); • axborot beruvchi - tabiatdan o'ziga xos maydon va landshaft sifatida foydalanish bo'lib, bu resurslar madaniy, ziyoratli kabi turizm turlarini rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.
2. Rekreatsiya sifatida foydalanish turiga ko'ra:
<ul style="list-style-type: none"> • mineral suvlar; • botqoqlar; • tuzlar; • o'rmonlar.
3. Resurslarning tugashi darajasiga ko'ra:
<ul style="list-style-type: none"> • tugaydigan tabiiy resurslar, ular o'z navbatida yangilanib turadigan (chuchuk suv, o'simlik va hayvonot dunyosi) va yangilanmaydigan (minerallar) turlarga bo'linadi. • tugamaydigan tabiiy resurslar, ularga quyosh energiyasi, shamol, dengiz to'lqinlari, suvlar kiradi.
4. O'zi qayta tiklanishi va o'sishi imkoniyatiga ko'ra:
<ul style="list-style-type: none"> • qayta tiklanadigan resurslar, bunga o'rmonlarni misol keltirish mumkin, o'rtacha 50 yilda qayta tiklanadi. • qayta tiklanmaydigan resurslar.

2.2.2-rasm. Tabiiy turistik resurslarning guruhlanish tasnif yondoshuvlari³⁸

Tabiiy turistik resurslar orasida asosiy o'rinni rekreatsiya resurslari egallaydi, ular mamlakat aholisini, hamda turistlarni dam olishi va davolanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda noyob tabiat yodgorliklari asosiy turistik obyektlar hisoblanadi. Noyob tabiat yodgorliklari, bu – muhofaza qilinadigan obyekt turlaridan hisoblanadi. Turizm – ko'plab iqtisodiyot tarmoqlarini o'z ichiga olgan, qurilishdan boshlab, transport xizmatigacha bo'lgan faoliyatning ixtisoslashgan turi hisoblanadi. Shuning uchun turizm sohasidagi band ishchilar sonini baholashni qiyinlashtiradi. Undan tashqari turizm iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlari, qishloq xo'jaligi korxonalarini, transport vositalari ishlab chiqaruvchi zavodlar, mebel ishlab chiqaruvchi korxonalar va boshqalar bilan o'zaro aloqada rivojlanadi. Surxondaryo viloyatining arxeologik yodgorliklari, madaniy me'ros

³⁸ Ibadullaev N.E. Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misolida). SamISI, 2019. -77 b;

ob'ektlari, tarixiy-madaniy turizmning ko'plab turlariga turmashrutlar ishlab chiqish imkoniyati mavjud. Bu ma'lumotlar bilan yaqindan tanish uchun (2.2.1, 2.2.2-Ilovalar va 2.2.1-jadval).

2.2.1-jadval.

Surxondaryo viloyatidagi tarixiy- madaniy me'ros turistik resurslar³⁹

Turistik resurslar turi	Ob'ektlar
Arxeologik topilmalar	418 ta arxeologik ob'ekt, 36 ta me'morchilik obidalari, 26 mingdan ortiq moddiy va madaniy eksponatlar
Tarixiy manzilgoh va alohida qurilmalar	80 ta Kushonlar davri qishloq manzilgohlari, Teshiktosh, Machay g'orlari (tosh davri manzilgohlari), Zarautsoy darasi va boshqa manzilgohlar
An'anaviy qishloq xo'jaligi manzilgohlari	Sherobod, Bandixon, Sho'rchi dehqonchilik markazlari
Folklor va xalq tabobati	Surxon baxshichiligi, Boysun folklor etnografik ansambli
An'anaviy hunarmandchilik va hunarmandlar manzillari	Hunarmandlar uyushmasi, Sherobod kulolchilik maktabi
An'anaviy va zamonaviy iqtisodiy tadbirlar	Ish o'rinlari yarmarkalari, investitsiya forumlari, biznes forumlar
An'anaviy va zamonaviy san'at - raqs, musiqa, teatr	Musiqali drama va Qo'g'irchoq teatrlari, to'rtta musiqa va san'at maktablari
Muzeylar	Arxeologiya, O'lkashunoslik, Al Hakim at-Termiziy muzeylari
Madaniyat muassasalari va markazlari	Ikkita konsert muassasasi, 220 dan ortiq kutubxonalar
Tadqiqot va ta'lim markazlari	Termiz davlat universiteti, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Boysun turizm va servis kolleji
Qishloqlar va qishloq landshafti	Sherobod, Boysun, Oltinsoy, Denov, Uzun, Sariosiyo tumanlari hududidagi tog' qishloqlari
Boshqalar	"Boysun bahori", "Baxshi" folklor festivallari

O'rganishlar tahlilida tuzilgan jadvaldan ko'rish mumkinki, qanchalik hudud turistik obyektlarga boy hisoblansa, turistik mahsulotlar turini ko'paytirish imkoniyatini yaratiladi. Har bir hudud ma'lum turistik resurslarga ega. Qaysidir hudud tarixiy obidalarga boy hisoblansa, ayrimlari tabiiy turistik obyektlarga boy hisoblanadi. Turistik faoliyatda barcha turistik resurslardan bir

³⁹Z.N.Turayev Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi –Tashkent-2022

zaylda foydalanib bo'lmaydi, chunki obyektlarning joylashishidagi qo'layligi, jozibadorligi turlicha.

Shuning uchun turistik obektlardan foydalanishda ularga yaratilgan sturukturalarning mavjudligi muhim sanaladi. Sifat jihatdan obektlardan foydalanishni baholashda qo'yidagi belgilar e'tiborga olinadi: ta'sirchanligi, ulug'vorligi, joylashuvidagi qulayliklari, atrof-muhit holati, obektlarning aholi orasidagi tanilganligi va o'ziga jalb qilish qobiliyatiga egaligi infratuzilma yaratishga imkon yaratadi.

Turistik – obektlari bu mamlakat va mahalliy aholining milliy boyligi sanaladi. Yuqoridagi jadvaldan foydalanib, Surxondaryo viloyati tumanlaridagi turistik obektlariga yaratilgan infratuzilma sifat jihatdan baholash mumkin. Agarda shartli ravishda besh balli tizimda baholasak, tabiiyki turistik resurslari imkoniyati bo'yicha Termiz shahri, Termiz, SHerobod va Denov tumanlarida turistlarga yaratilgan infrastruktura sharoit bo'yicha- 5 ballga, Boysun tuman-4 ballga, Jarqo'rg'on, SHo'rchi, Oltinsoy, Qumqo'rg'on va Sariosiyo tumanlari – 3 ballga teng. Tarixiy obidalar va diniy qadamjoli obyektlarga ega hududlar imkoniyati bo'yicha, Termiz shahri, Termiz, SHerobod va Denov – 5 ballga, Muzrobod, Boysun va Oltinsoy tumanlarini–4 ballga, Jarqo'rg'on, SHo'rchi va Qumqo'rg'on tumanlari – 3 ballga baholash mumkin. Milliy etnografik va madaniy obidalar resurslari bo'yicha Boysun, Denov va SHerobod tumanlari – 5 ballga, Oltinsoy, Jarqo'rg'on va Termiz tumanlari – 4 ballga, qolgan tumanlarni -3 ballga baholash mumkin.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, Termmiz shahri Termiz, SHerobod, Boysun, Oltinsoy, Denov va Sariosiyo tumanlari turistik obektlarga boy hisoblansa, ayrim tumanlarning turistik resurs imkoniyati kam. Shu jihatdan tumanlarning turistik resurslari potensialini uch kategoriya (yuqori, o'rtacha, past) asosida baholash ham mumkin. Bu yerda, Termmiz shahri Termiz, SHerobod, Boysun, Oltinsoy, Denov va Sariosiyo tumanlari yuqori kategoriyaga, SHo'rchi, Qumqo'rg'on, Uzun va Jarqo'rg'on tumanlari o'rtacha kategoriyaga, qolgan tumanlarni past kategoriyaga kiritish mumkin.

2.3. Surxondaryo viloyatida ekoturistik rayonlashtirish jarayonlari

Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishni hududiy tashkil etish ekologik – iqtisodiy rayonlashtirish nazariyasi va amaliyotiga asoslanishni.

Shu sababdan tabiatdan foydalanishning hududiy xususiyatlarini faqat ekologik – iqtisodiy rayonlashtirish orqali aniqlash mumkin. Ekologik – iqtisodiy rayonlashtirish hududning tabiiy – ekologik imkoniyatni har tomonlama hisobga olgan holda mamlakat iqtisodiyotini hududiy rivojlanishini takomillashtirishga va mintaqalarning tabiiy resurs imkoniyatidan unimli foydalanishni hududiy boshqarishni tashkil etishga xizmat qiladi. Hududlarning ma'lum mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirishning muhim omilidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son Farmoni bilan har bir hududning geografik jaolashuvidan kelib chiqib ma'lum bir vazifalarni bajarish belgilangan.⁴⁰:

Bu borada Surxondaryo viloyatida ham ekoturistik rayonlashtirish, hududning iqtisodiy ixtisoslashuvi, ilmiy yondashuvlar asosida "Yashil makon", "yashil bog'lar" va "yashil jamoat parklari"ni barpo etish; 2022-2026 yillarga mo'ljallangan umummilliy loyihalar belgilangan. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida har yil kamida 200 ming tup daraxt ekish. "Yashil makon" umummilliy loyihasi tashabbuslariga mos tarzda viloyat hududida aerobiologik monitoring tizimini yo'lga qo'yish. Maishiy chiqindilarni yig'ishni 100 foizga, ularni qayta ishlash darajasini 2026 yilga qadar 21 foizdan 50 foizga yetkazish.

Viloyat bo'yicha 12 ta yer usti tabiiy suv ob'ektlari (daryolar, kichik daryolar va tabiiy ko'llar)ning sanitariya-muhofaza zonalari va sohil bo'yi mintaqalarini belgilash ishlarini yakunlash. Termiz shahri aholiga qulay, ekologik toza va yashash uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lgan hududga aylantirish, ko'kalamzorlashtirish darajasini 30 foizga yetkazish loyihalari belgilangan.

⁴⁰ Qonun xujjatlari ba'zasidan. PF-5863-son 2019 yil 30 oktyabr Toshkent sh

Ushbu loyihalarning amalga oshirilishi taqsimotini quyidagi (2.3.1, 2.3.2, 2.3.3, jadval).

2.3.1-Jadval

2022 — 2024-yillarda Viloyatda madaniyat va istirohat bog‘lari negizida tashkil etiladigan “yashil jamoat parklari”⁴¹

T/r	Istirohat bog‘lari nomi	Manzili	Maydoni (gektar)
1.	Bobur bog‘i	Termiz shahar, “Ma‘rifat” MFY, Istiqlol ko‘chasi	6,4
2.	Madaniyat va istirohat bog‘i	Oltinsoy tumani, “Bo‘ston” MFY	10
3.	Navro‘z madaniyat va istirohat bog‘i	Qumqo‘rg‘on tumani, “Navro‘z” MFY	6,3
4.	Charog‘on bog‘i	Sho‘rchi tumani, “Navro‘z” MFY, Mustaqillik ko‘chasi	47,73
5.	Yoshlar bog‘i	Sariosiyo tumani, “Shahriobod” MFY	6,2
6.	Bolajon istirohat bog‘i	Qiziriq tumani, “Do‘stlik” MFY	3

2.3.2-Jadval

2022 — 2024-yillarda Viloyatda yangi tashkil etiladigan “yashil jamoat parklari”⁴²

T/r	Manzil	Maydoni (gektar)
1	Sherobod tumani	2.5
2	Oltinsoy tumani	5.2
3	Qumqo‘rg‘on tumani	5.4
4	Termiz tumani	4
5	Sho‘rchi tumani	2.5
6	Angor tumani	8.5
7	Bandixon tumani	2
8	Boysun tumani	4
9	Termiz shahri	5
10	Denov tumani	7
11	Qiziriq tumani	7
12	Muzrabot tumani	2.5
13	Jarqo‘rg‘on tumani	4.5
14	Uzun tumani	3
15	Sariosiyo tumani	4
	Viloyat bo‘yicha	66.1

⁴¹ Surxondaryo Ekologiya va Atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi axborot xizmati Termiz-2022

⁴² Surxondaryo Ekologiya va Atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi axborot xizmati Termiz-2022

Viloyatda tashkil etilayotgan yashil jamoat parklarining asosiy qismi Termiz shahri, va tumani markazlari atrofida, tashkil qilinish rejalashtirigan. Viloyatining turistik infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida tashkil etilayotgan yashil jamoat parklari, mehmonlar uchun tashrif manzillaridan biri qatorda katta e'tibor qaratish lozim. Ayniqsa viloyatdagi ziyoratgohlarga, tog'li va tog'oldi hududlariga tabiat qo'yniga tashrif buyuruvchilar uchun tashrif manzillaridagi obektlar atrofini yashil hududga aylantirish ushbu hududlarda yashovchi shaxsiy xonadonlarda oilaviy mehmon uylarini ham tashkil etishda yaxshi samara beradi. Mehmon uylarini tashkil etish mehmonxona qurishga qaraganda kam mablag' talab etishi bilan bir qatorda mahalliy aholining bandligini ta'minlashda ham muhim hisoblanadi.

2.3.3-Jadval

Surxondaryoning turli hududlarida turizmni rivojlantirish imkoniyatlari⁴³

Hududlar Turizm turlari	Termiz Shahri	Tumanlar markazi atrofida	Qishloq joylarida	Odamlar yashamaydigan xududlarda
Tarixiy – tanishuv	3	2	1	0
Arxeologik turizm	2	3	3	2
Ekologik turizm	0	2	2	3
Sarguzasht turizmi	2	2	2	3
Fermerlik yoki qishloq turizmi	0	2	3	1
Suv (dengiz) turizmi	0	2	2	3
Etnografik turizm	1	2	3	0
Kongress – biznes turizm	3	1	1	0
Ixtisoslashgan turizm	1	2	2	2
Kurort va sanotoriyalar	1	3	3	3
Diniy turizm	3	3	2	0
Yoshlar turizmi	1	2	2	3
Gerontologik turizm	2	3	2	1
Safari	0	2	3	3
Shop - turlar	3	2	1	0

Izoh: 3 - yuqori darajada imkoniyat, 2 - o'rta darajada imkoniyat, 1 - past darajada imkoniyat, 0 – umuman imkoniyatning yo'qligi.

⁴³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Qo'yidagi 2.3.3- jadval orqali ko'rish mumkinki, Surxondaryo ko'pgina turistik resurslarga ega hududdir. Ularning foydalanish salohiyati yuqoriligi bo'yicha, madaniy – tarixiy, ekologik turizm resurslari hamda diniy turizm resurslari alohida ajralib turadi. Turizm sohasidagi mavjud resurslardan samarali foydalanishda malakali ishchi kuchiga talab oshmoqda. Bu borada Termiz Davlat Universiteti hamda Termiz iqtisodiyot va servis Universitetida turizm sohasi bo'yicha yo'nalishlarni ochilishi katta ahamiyatga ega. Barcha sohalar qatori, turizm sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishda ko'pgina jihatlarga e'tibor qaratilib, bozor munosabatlari sharoitida, tadbirkorlikni rivojlanishi uchun shart sharoitlar mexanizimi yaratildi. Xizmat turlari shu jumladan, auditorlik, konsalting, turagentlik, turoperatorlik faoliyati bilan bog'liq xizmat turlari hajmi ham oshirilib, ko'p mablag' talab qilmaydigan xizmat ko'rsatish tarmoqlari yo'lga qo'yiildi. Kichik va xususiy firmalarni ishga tushirish hisobidan minglab yangi ish o'rinlari ochilib, turizm industrisi asta sekin rivojlanib bordi. Hozirgi davrda turizm jahon iqtisodiyotida juda tez va jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan soha bo'lgani uchun respublikamizda turistik bozorni shakllantirish o'ta muhim hisoblanib, turistik resurslardan samarali foydalanishning bozor shakli hisoblanadi.

II-bob bo'yicha xulosa

Surxondaryo viloyatida ekoturizm resurslaridan foydalanish shart-sharoitlarini o'rganish natijasida quyidagi ilmiy xulosa va takliflar, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Surxondaryo viloyatida turizmni rivojlanishining iqtisodiy SWOT tahlili amalga oshirildi. SHu bilan birga, turizm bozorga qo'shni mamilakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda investitsiya va kapital oqimini ta'minlash darajasini oshirishda muhim vosita bo'lib hisoblanadigan qurulish arxitektura, transport, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarishning o'ziga xos standartlari, tibbiy xizmatlar, ko'ngilochar shoular, savdo xizmatlari, turarjoy ijaralar va boshqalardan foydalanishda qulaylik yaratish o'rganildi.

2. Surxondaryo viloyatidagi ekoturistik ob'ektlarning holatini baholash maqsadida turizm tarmoqlari statistikasidan. Viloyatidagi turistik obyektlarining geografik joylashuvi, ulardan foydalanuvchlar respublika va mahalliy sayyohlari turiga ko'ra yaratilgan shart-sharoitlari ko'rsatkichlari dinamikasi tahlil qilindi.

3. Tadqiqot davomida Surxondaryo viloyatida ekoturistik rayonlashtirish jarayonlari metodologiyasi yoritildi. Qo'llanilgan rayonlashtirish metodologiyasi asosida mehmonxonalar, tur firmalar, xizmat ko'rsatish shaxobchalari tashkil etib, aholi bandligini ta'minlashdagi rentabellik darajasi imkoniyatlari ilmiy asoslandi.

III-BOB.SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLAN-TIRISHDA EKOTURIZM RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI.

3.1.Ekoturizm rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda davlat-xususiy sherikchiligi imkoniyatlaridan foydalanish

Hozirgi kunda, dunyo mamlakatlari xalqaro turizmning rivojlanishida turistik korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini oshirishga juda katta e'tibor berilmoqda. Dunyodagi to'rtta ustuvor sohalardan biriga aylangan turizm sohasiga ham imkon qadar aholining keng qatlamini faol hissa qo'chishlari, ya'ni ularni turli xil turistik xizmatlarni tashkil qilishda keng miqyosda ishtirok etishlarini va buning natijasida mamlakatning ham ijtimoiy ham iqtisodiy jihatdan manfaatdorliklari oshirishlarini ta'minlashda xususiy turistik korxonalar va tashkilotlarning o'zini benihoya kattadir.

Hozirgi kunda, respublikamizda 60 mingga yaqin turli mulkchilik shakllaridagi kichik korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Bu korxonalardan 96,1 % shaxsiy mulkchilik ko'rinishidagi korxonalaridir. Kichik korxonalar hissasiga jami mahsulot, ish va xizmatlarning 96 % to'g'ri keladi. Ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, O'zbekistonda xususiy va kichik tadbirkorlikni rivojlantirishga davlat tomonidan katta ahamiyat berilgani ko'rish mumkun⁴⁴.

Bu borada iqtisodiyotning keng qamrovli sohasi, turizmni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish davrida davlat-xususiy sherikchiligi imkoniyatlaridan foydalanib, xizmatlarini tashkil etishda muayyan soha bo'yicha qonun va qonun osti hujjatlari ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi "Turizm to'g'risida"gi qonunining tegishil moddalarida tafsiflar berib o'tilgan. Jumladan, 17-modda. Turistik zonalar, muayyan chegaralarga ega bo'lgan, bir yoki bir necha turistik resurslar (tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-madaniy, davolash-sog'lomlashtirish obyektlari, shuningdek turistlar va ekskursantlarning ehtiyojlarini qanoatlantira oladigan boshqa obyektlar) joylashgan, kirish turizmini va ichki turizmni, turistik industriyani

⁴⁴ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. -2021. -367 s.;

rivojlantirish, turistik resurslarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish maqsadida tashkil etish. 18-modda. Turistik zonalarning turlari. Turizmni kompleks rivojlantirish va turistik resurslarni lozim darajadagi holatda saqlash, tegishli hududning turistik salohiyatini oshirish, shuningdek ularni rivojlantirishga investitsiyalar jalb qilinishini rag‘batlantirish maqsadida turistik zonalar, erkin turistik zona, kichik turistik zona, maxsus turistik zonalarga ajratilgan. Shuningdek har bir turistik zonaga turli xil iqtisodiy inkoniyat va huquqlar berilgan⁴⁵.

Erkin turistik zona, erkin iqtisodiy zonaga tenglashtirilgan. Erkin turistik zonaning ishtirokchilari sifatida ro‘yxatga olingan tadbirkorlik subyektlariga, erkin iqtisodiy zonalar va ularning ishtirokchilari uchun nazarda tutilgan imtiyozlar hamda preferensiyalar tatbiq etiladi.

Kichik turistik zona, kichik sanoat zonasiga tenglashtirilgan. Kichik turistik zonalarga nisbatan kichik sanoat zonalari to‘g‘risidagi qonunchilikning qoidalari tatbiq etilgan.

Maxsus turistik zona belgilangan maxsus hudud bo‘lib, unda turistik resurslar va ushbu hududda muayyan turistik mahsulotni shakllantirish hisobidan turistlarga xizmat ko‘rsatilishini ta‘minlovchi turistik industriya imtiyozlari va preferensiyalari belgilangan.

Kompleks turistik xizmatlar hamda turistning va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun zarur bo‘lgan boshqa qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatuvchi mustaqil tashkilotlar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar majmui Qonunda turistik klaster deb nomlangan. Turistik klasterlarga 19-modda sharx berilgan. Turistik klasterlar kompleks turistik xizmatlar ko‘rsatish, turistik faoliyatning raqobatbardoshligi va sifatini oshirish maqsadida turistik mahsulotni shakllantiradi, targ‘ib etadi va realizatsiya qilishi ifodalangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-104-son qaroriga

⁴⁵ O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi - Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., Qonuni tahriri 03/21/683/0375-son)

asosan viloyatda 2021—2023-yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijasida 2021-yilda xizmatlar ko‘rsatish hajmi qariyb 20 foizga o‘sgan. Shu bilan birga, xizmatlar sohasini rivojlantirishga yangicha yondashuvlarni joriy etish orqali bozor xizmatlari hajmini 2022-yilda 1,5 baravarga oshirib hamda qo‘shimcha 15 ming yangi ish o‘rinlari yaratilgan. Hududlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, alohida yondashuvlar asosida xizmatlar sohasini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy resurslar va infratuzilma bilan ta‘minlash hamda ularga qulay soliq rejimi joriy etilgani ko‘rishimiz mumkun.

Surxondaryo viloyatida hududlarining aholisi soni va zichligi, geografik joylashuvi, ixtisoslashuvi va infratuzilma bilan ta‘minlanganlik darajasidan kelib chiqib, ekologik turizm va xizmatlar sohasini rivojlantirish maqsadida davlat xususiy sherikligida tashkil etilgan sohalarga quyidagi ustuvor yo‘nalishlari belgilangan: Har har bir tuman va shaharlarga:

-budjet mablag‘lari hisobiga 2021-2022-yillarda shaharsozlik loyihalari asosida mukammal ta‘mirlash, tashqi yoritish, sug‘orish va drenaj tizimlarini modernizatsiya qilish, piyoda va velosiped yo‘laklari qurish, aholi gavjum bo‘lgan ko‘chalarda savdo, xizmat ko‘rsatish, sayilgoh va ko‘ngilochar ko‘chalarga aylantirish;

-raqamli xizmatlar ulushini bosqichma-bosqich oshirish uchun zarur infratuzilma bilan ta‘minlash va sifatli aloqa va internet xizmatlari qamrovi, “Elektron hukumat” tizimi xizmatlaridan foydalanish ko‘lamini keskin kengaytirish;

-viloyat markazi hamda boshqa shaharlarda ko‘pi bilan har 3—5 ta mahalla uchun aholi gavjum bo‘lgan hududlarni “Yashil makon” “Yashil hudud” ko‘chani obodonlashtirib, piyodalar yo‘lakchalarini kengaytirish va ularni yoritish orqali mahallalararo savdo-xizmat ko‘chasini tashkil etish;

-Termiz, Denov va Boysun shaharlarida — yuqori daromadli xizmatlarni, ayniqsa, yirik savdo va ko‘ngilochar xizmat ko‘rsatish obyektlarini ko‘paytirish,

ta'lim va tibbiyot muassasalari joylashgan hududlarda ixtisoslashgan klasterlar tashkil etish:

-viloyatda 2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvarga qadar chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish) xizmatlari, avtotransportda yo'lovchi va yuk tashish, transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, kompyuter xizmatlari, maishiy texnikani ta'mirlash, agro va veterinariya xizmatlarini ko'rsatuvchi hamda ko'ngilochar maskanlarda xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz etib belgilangan:

-tadbirkorlik subyektlariga 2022-yil 1-yanvardan boshlab 2027-yil 1-yanvarga qadar mehmonxona (joylashtirish vositalari) va maydoni 5 ming kvadrat metrdan yuqori bo'lgan savdo komplekslari (shu jumladan, ular egallagan yer uchastkalari) yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini 90 foizga kamaytirish. Bunda, 2027-yil 1-yanvargacha yangidan quriladigan obyektlarga (shu jumladan, ular egallagan yer uchastkasiga) nisbatan mazkur imtiyozni ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab 5 yil muddat davomida qo'llash, foyda solig'ini hisoblashda binolarning qiymatini ikki yil davomida amortizatsiya xarajatlari sifatida chegirish huquqi berilgan;

-2022-yil 1-apreldan boshlab 2025-yil 1-yanvarga qadar, Boysun tumani "Zovboshi turizm" zonasida ro'yxatdan o'tgan hamda ushbu hududda umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish), savdo, ko'ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari aylanmadan olinadigan soliq stavkasi — 1% foiz qilib belgilangan;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-son qaroriga asosan. Surxondaryo viloyatida yashil hududlarni tashkil etish bo'yicha. 2022-2023 yillarda Termiz shahri va tumanlarning markaziy ko'chalarida "Yashil makon" loyihasida obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish natijasida savdo, ko'ngilochar, gastronomik, turizm va san'at yo'nalishlariga ixtisoslashgan maxsus savdo va ko'ngilochar ko'chalarga

aylantirish dasturlari belgilangan. Bu ishlarning bajarilish tahlillarini quyidagi (3.1.1, 3.1.2, 3.1.3 jadvallar)

3.1.1 jadval

2022 yilda viloyatdagi maxsus xizmat ko‘rsatish ko‘chalariga aylantirilgan markaziy ko‘chalarda tashkil etilgan servis obyektlari⁴⁶.

/r	Tuman (shahar) nomi	Ko‘cha nomi	Tashkil etilgan servis obyektlari soni (maqsadli ko‘rsatkich)
Surxondaryo bo‘yicha		24	952 ta
1.	Angor tumani	At-Termiziy	40
	Angor tumani	Oybek	44
2.	Bandixon tumani	Markaziy	42
3.	Boysun tumani	Istiqlol	41
		Olmazor	43
4.	Denov tumani	Sharof Rashidov	60
		Mustaqillik	45
		Turkiston	40
5.	Jarqo‘rg‘on tumani	Maxtumquli	42
		O‘zbekiston	41
6	Qiziriq tumani	Mustaqillik	44
		Markaziy	50
7.	Qumqo‘rg‘on tumani	Alisher Navoiy	41
		O‘zbekiston	42
8	Muzrabot tumani	Markaziy	45
9	Oltinsoy tumani	A.Qodirov	41
10	Sariosiyo tumani	Mirzo Ulug‘bek	45
11	Termiz tumani	At-Termiziy	44
12	Termiz shahri	Navbog‘, Dilnavo	51
13	Uzun tumani	O‘zbekiston	42
14	Sherobod tumani	Mustaqillik	46
		Toshkent	41
15	Sho‘rchi tumani	Mustaqillik	43

⁴⁶Surxondaryo viloyat hokimligi, “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi badligini ta‘minlash ma‘lumoti. Termiz-2022

3.1.2- jadval
“Yangi O‘zbekiston” massivlarida 2022-2023 yil tashkil etiladigan xizmat ko‘rsatish obyektlari⁴⁷

T/r	Hududlar nomi	Tuman va shahar nomi	Mahalla va massivlar nomi	Tashkil etiladigan xizmat ko‘rsatish obyektlari soni
1.	Surxondaryo viloyati	Angor tumani	“Sharq guli” MFY	42
		Jarqo‘rg‘on tumani	“Qorayantoq” MFY	40
		Sariosiyo tumani	“Lutfukor” MFY	39
		Boysun tumani	“Mustaqillik” MFY	37

3.1.3- jadval
Yirik savdo komplekslari va hududiy savdo-logistika markazlari tashkil etiladigan tuman va shaharlar ro‘yxati⁴⁸.

T/r	Tuman (shahar) nomi	Manzili	Maydoni (gektar)	Tashkil etiladigan servis obyektlari soni
1.	Denov tumani	“Namozgoh” MFY, Sh. Rashidov ko‘chasi	18	540
	Termiz shahri	“Bog‘i Shamol” MFY, A. Navoiy ko‘chasi	0,8	160

Yuqori jadvaldan ko‘rish mumkinki, qisqa vaqt ichida xizmat ko‘rsatish va servis sohasida, turistik resurslarida yangi ish o‘rni yaratishi katta salohiyati borligini ko‘rishimiz mumkin. Birgina 2022 yilda shahar va tumani markazlaridagi ko‘chalarni obodonlashtirish orqali 952 ta yangi ish o‘rni yaratilgan. Bundan tashqari, “Yangi O‘zbekiston” massivida, Yirik savdo komplekslari va hududiy savdo-logistika markazlarida 2026 yilgacha bo‘lgan davrda 3000 ta yangi xizmat ko‘rsatish va servis sohasida ish o‘rni yaratish inkoniyati mavjudligi tahlili ma’lumotlar keltirildi.

3.2. Ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishda resurslardan samarali foydalanish yo‘llar imkoniyati.

Inson ko‘rib, eshitib yurgan har qanday mo‘jizaviy, qiziqarli ob’ektlar, tabiatning so‘lim go‘shalari, qadimdan saqlanib kelayotgan obidalar, daryolar,

⁴⁷ Surxondaryo viloyat hokimligi, “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi badligini ta‘minlash ma’lumoti. Termiz-2022

⁴⁸ Surxondaryo viloyat hokimligi, “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi badligini ta‘minlash ma’lumoti. Termiz-2022

sharsharalar, hayvonot yoki turli-tuman o'simliklar o'sadigan joylar, tomosha bog'larining hammasiga ma'lum bir yo'ldan boriladi. Bu yo'l turizmida «marshrut» deyiladi.

Ushbu turistik resurslar bo'lgan tabiat qo'riqxonasi, tarixiy, tabiiy, tabiat va uning boyliklari, madaniy obida, arxeologiya, madaniy me'ros va hokazolarga turist har taraflama qulaylikda boradigan marshrutni talab qiladi. Ushbu turistik marshrutda turist yoki turistlar mazmunli dam olish, qoniqish olgandan keyin, asta-sekinlik bilan turistlar oqimini o'ziga jalb qila boshlaydi.

Respublikamizdagi barcha turistik resursga-ob'ektga-manzilu-makongamaskanga yo'l bor. Bu yo'llar asfaltli, toshli, mahalliy tuproq yo'llari, so'qmoqlar va hakoza ko'rinishlaridir. Lekin, bu yo'llarda turistik marshrut xizmatlari tashkil qilingandan keyingina turistik resursda turistlar soni ko'payishi mumkin. Turistik resursga hozirgi yo'llar bilan ham turistlar olib boriladi. Lekin bu yo'ldagi turistik marshrut turistning erkin harakatlanishi, u hoxlagan vaqtda to'xtashi, qiziqib qolgan yo'l bo'yi «ob'ektlar»ga ekskursiyaga chiqishni talab qilishi, yoki choy ichib dam olishni va turistning qo'shimcha xizmatlarini, ehtiyojlarini qondirishi kerak.

Turistik marshrutda turistlarning transport vositalarida harakatlanishi davrida bu transport vositalari faqat turist yoki turistlarga xizmat qiladi. Turistik marshrutda transport vositalarining haydovchilari yo'l-yo'lakay odamlarni olishi yoki kira haqqi uchun ishlamaydi va bunga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, turistik marshrutda turistlarning hohishi yoki iltimoslari bilan marshrut rahbarining ruxsati bilangina marshrutning oldindan belgilangan yo'nalishi yoki yo'nalishlari o'zgarishi, o'zgartirilishi mumkin. Yanada aniqroq qilib aytilganda turning turistik marshruti turistlarning talablari bo'yicha ular qiziqgan yoki turistlarni qiziqtirgan turistik ob'ektga marshrut dasturidagi barcha xizmatlarni ko'rsatish hisoblanadi.

Turistik sayohat dasturi – marshrutdagi to'xtash joylarida bo'lish, mehmonxonada yashash, turistik ahamiyatga molik joylarga ularni tomosha qilish (ekskursiya) maqsadida tashrif buyurish, ovqatlanish, shuningdek marshrut dasturida nazarda tutilgan transport vositalari yordamida marshrut bo'ylab

harakatlanish sanalari va vaqtlari ko'rsatilgan tadbirlar rejasi. Sayohat dasturi (namunaviy yoki individual) sayohatchiga sotilgan va shartnomada belgilangan turistik xizmatlarni amalga oshirish rejasi hisoblanadi. Qo'shimcha xizmatlar turistlarga bevosita ular yashayotgan joyda sayohatchining javobgarligi ostida alohida haq evaziga ko'rsatilishi mumkin. Vohaning bir nechta egzotik ekologik resurslariga turmarshrutlar ishlab chiqishni ko'rib chiqamiz.

Termiz – Boysun – Termiz ekoturizm marshrutini tuzishni ko'rib chiqamiz: Ekoturistik marshrut: Turist Termizdan mikroavtobusda jo'natiladi va qaytib keladi: 1 mayda ertalab soat 8:00 da mikroavtobusda cho'natiladi. Sayrobgga soat 11.00 da yetib kelish – 1 mayda.

Sayrobda, "Sayrob" mehmonxonasiga uch kun muddatga joylashtiriladi; ekskursiyalar – tog' bo'ylab, Boysun tog'-o'rmon biosfera qo'riqxonasiga, Zovboshi ekoturizm maskaniga, milliy parkiga va maxalliy aholining xayot tarzi bilan tanishish. Ovqatlanish – uch mahal mehmonxona kafesida va ekomارشrut bo'ylab. Ekoturistik marshrutning muddati – uch kun.

1-kun – "Sayrob" mehmonxonasiga joylashish, mehmonxona restoranida tushlik, Sayrobni ming yoshdagi chinori "hayot daraxti" va mahalliy aholi yashash tarizi bilan ta'nishish. Sayrobni ming yoshdagi chinori mahalliy aholi tomonidan juda ardoqlanadi. Daraxt tanasining ichi bo'sh, unda hosil bo'lgan kovak shunchalik kattaki, avvallari uning ichida yigirma nafar o'quvchi va o'qituvchi sig'adigan kichik maktab bo'lgan. Hozir ichkarida kichik muzey joylashgan. Chinor tabiiy yodgorlik sifatida muhofazaga olingan, bu maskan mahalliy ziyoratgoh hisoblanadi.

2-kun – mehmonxonada nonushta, Boysuntov tog'larida joylashgan, Teshiktosh g'ori, Xo'ja mayxona ziyoratgohi tog'-o'rmon biosfera qo'riqxonasi bo'ylab sayr. Butun kun davomida, tushlik – qo'riqxonada teritoriyasida, kechki ovqat – mehmonxonada.

Teshiktosh g'ori. Boysuntov tog'larida joylashgan bo'lib, Musteriya madaniyati o'rni ekanligi va u erdan topilgan neandertal qizning qabri bilan mashhurdir. Dafn qilingan joy atrofiga tog' echkisining shoxlari o'rnatilgan bo'lib,

tevaragiga qizil bo‘yoq bilan aylana chizilgan. Shuningdek, g‘ordan 3000 ga yaqin ro‘zg‘or buyumlari va mehnat qurollari topilgan. G‘orning o‘zi dengiz sathidan 1550 metr balandlikda joylashgan. Tog‘ cho‘qqisiga chiqqach, Qarshi dashti va Derbent qishlog‘iga olib boradigan katta yo‘lni ko‘rasiz.

3-kun - mehmonxonada nonushta, “Omonxona” sanatoriysi va Xo‘ja Gur Gur ota mavzesiga ekskursiya, Omonxonada tushlik, bo‘sh vaqt (aholining xayot tarzi bilan tanishish). Xo‘ja Gur Gur ota mavzesiga ekskursiya. Termizga jo‘nab ketish – mikroavtobusda soat 18.00 da.

“Omonxona” sanatoriysi. Boysun tumani markazidan sharqqa eltuvchi katta yo‘l chetidagi belgi “Omonxona” sanatoriysiga yetaklaydi. Sanatoriy Omonxona qishlog‘ida joylashgan. Mahalliy oqsoqollarning aytishicha, bu yerda 700 yildan beri odamlar yashaydi. Buni qishloqdagi eski qabriston va undagi qabr toshlari ham tasdiqlaydi. “Omon” so‘zi sog‘lom, xavfsiz, tinch, osoyishta, “xona” so‘zi esa xona, joy, manzil, makon ma‘nolarini bildiradi. Xullas, “Omonxona” tinchlik, salomatlik va osoyishtalik maskanidir. Katta yo‘ldan burilib, qirlar orasidan 15 kilometr yurganingizdan so‘ng qishloq markaziga yetib borasiz.

Xo‘ja Gur Gur ota mavzesi. Boysun tog‘larining eng diqqatga sazovor joylaridan biri bo‘lib, bir tomonida besh yuz metrlik qoya, yana bir tomonida chuqur kanyonlar joylashgan g‘ayrioddiy ulkan cho‘qqidir. "Barcha g‘orlarning otasi" – Xo‘ja Gur Gur ota tog‘ tizmasi aynan shunday nomlanadi. Bu joy faqat alpinistlar va ekstremal sportchilarnigina o‘ziga jalb qilish bilan cheklanmaydi. Ushbu maskanda qadimiy ziyoratgoh va muqaddas buloqli dara ham bor.

Termiz – SHerobod – Termiz ekoturizm marshrutini tuzishni ko‘rib chiqamiz: Ekoturistik marshrut: Turist Termizdan mikroavtobusda jo‘natiladi va qaytib keladi: 1 mayda ertalab soat 8:00 da mikroavtobusda cho‘natiladi. SHerobod tumani Ko‘htang tog‘larida joylashgan Maydon dam olish ekomarkaziga soat 11.00 da yetib kelish – 1 mayda.

Maydon dam olish ekomarkazi, “Damolish” lageriga ikki kun muddatga joylashtiriladi; ekskursiyalar – tog‘ bo‘ylab, Ko‘htang tog‘-o‘rmon biosfera qo‘riqxonasi, maxalliy aholining xayot tarzi bilan tanishish. Ovqatlanish – uch

mahal mehmonxona kafesida va ekomarshrut bo‘ylab. Ekoturistik marshrutning muddati – ikki kun.

1-kun – Maydon dam olish ekomarkazi “Damolish” lageriga joylashish, Lager restoranida tushlik, Maydon dam olish ekomarkazi, Zarautsoy qoyatosh suratlari va mahalliy aholi yashash tarizi bilan ta’nishish.

Zarautsoy petrogliflari Hisor tizmasining janubi-g‘arbida, Ko‘hitang tog‘ining sharqiy yon bag‘rlarida, Sherobod tumanida joylashgan Zarautsoy darasidagi eng qadimiy qoyatosh rasmlari hisoblanadi. 1912-yilda bu yerdan qizil angobda chizilgan 200 dan ortiq tasvir topilgan. Zarautsoy qoyatosh suratlarida itlar bilan yovvoyi buqalarni ovlayotgan odamlar tasvirlangan. Qoyatoshlarda hayvonlar, jumladan, yovvoyi buqa, it, tulki, cho‘chqa, jayron, tog‘ echkisi, hasharotlar va turli buyumlar (kamon, nayza, o‘roq) hamda niqobli odamlar o‘ziga xos tarzda tasvirlangan

2-kun– mehmonxonada nonushta, Xo‘jaikon tuz g‘ori bo‘ylab sayr. Butun kun davomida, tushlik – Xo‘jaikon tuz g‘ori teritoriyasida, kechki ovqat mehmonxonada.

Xo‘jaikon tuz g‘ori. Sherobod tumanida joylashgan bo‘lib, bir necha yildan buyon sanatoriy-kurort davolash xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda. Xizmatlardan biri speleoterapiya bo‘lib, bu shifobaxsh tuzli g‘orda davolash turidir. Xo‘jaikon tuz g‘ori 1989-yilda topilgan. Bunday g‘orda bo‘lish astma, nafas olish kasalliklari, surunkali bronxit, pnevmoniya asoratlari, shuningdek, teri kasalliklari va immuniteti pasaygan bemorlar uchun juda foydalidir. Ushbu tuz g‘orining boshqa turdagi g‘orlardan afzalligi shundaki, dengiz sathidan 1200 metr balandlikda joylashganligi uchun bu yerning iqlimi quruq. Xo‘jaikon tuz g‘orining uzunligi 155 metr bo‘lib, uning ichida bir-biridan harorati, namlig, bosimi va mikroelementlari bilan farqlanadigan 3 ta davolash xonasi mavjud.

Termiz – Oltinsoy – Termiz ekoturizm marshrutini tuzishni ko‘rib chiqamiz: Ekoturistik marshrut: Turist Termizdan mikroavtobusda jo‘natiladi va qaytib keladi: 1 mayda ertalab soat 8:00 da mikroavtobusda cho‘natiladi. Oltinsoy

tumani tog'larida joylashgan Xojaipok sog'lomlashtirish markazi dam olish ekomarkaziga soat 11.00 da yetib kelish – 1 mayda.

Xojaipok sog'lomlashtirish markaziga ikki kun muddatga joylashtiriladi; ekskursiyalar – tog' bo'ylab, va maxalliy aholining xayot tarzi bilan tanishish. Ovqatlanish – uch mahal sog'lomlashtirish markazi kafesida va ekomarshrut bo'ylab. Ekoturistik marshrutning muddati – ikki kun.

1-kun Xojaipok sog'lomlashtirish markaziga joylashish. Sog'lomlashtirish markaziga restoranida tushlik, Xojaipok sog'lomlashtirish markazi va mahalliy aholi yashash tarizi bilan ta'nishish.

Xojaipok sog'lomlashtirish markazi. Xojaipok bir vaqtning o'zida ham ziyoratgoh, ham sog'lomlashtirish maskanidir. Xojaipok ismi Abdurahmon ibn And hazratlarining laqabidir. Bu g'or Kenagi tog'ining etagida joylashgan. G'orning chuqurligi mutaxassislar tomonidan to'liq o'rganilmagan. G'or yuzasidan oqib o'tadigan shifobaxsh buloq suvi 45 metrgacha oqib borib, kichik yerosti daryosiga quyiladi. G'ordan sekundiga 200 litrga yaqin suv chiqadi. Suv tarkibi Semashko nomidagi Ilmiy- tadqiqot markazi laboratoriyasi tomonidan o'rganilgan bo'lib, u natriy, kaliy, kaltsiy, natriy bikarbonat, kremniy kislotasi, azot, temir, alyuminiy va boshqa mikroelementlarni o'z ichiga olganligi aniqlangan.

2-kun–Xojaipok sog'lomlashtirish markazida nonushta, "Katta Vaxshivor" bo'ylab sayr. Butun kun davomida, tushlik – "Katta Vaxshivor" hududida joylashgan So'fi Olloyor ziyoratgohi teritoriyasida, kechki ovqat – sog'lomlashtirish markazida.

Termiz – Sariosiyo – Termiz ekoturizm marshrutini tuzishni ko'rib chiqamiz: Ekoturistik marshrut: Turist Termizdan mikroavtobusda jo'natiladi va qaytib keladi: 1 mayda ertalab soat 8:00 da mikroavtobusda cho'natiladi. Sariosiyo tumani tog'larida joylashgan Sangardak sog'lomlashtirish markazi dam olish ekomarkaziga soat 11.00 da yetib kelish – 1 mayda.

Sangardak sog'lomlashtirish markaziga ikki kun muddatga joylashtiriladi; ekskursiyalar – tog' bo'ylab, va maxalliy aholining xayot tarzi bilan tanishish.

Ovqatlanish – uch mahal sog‘lomlashtirish markazi kafesida va ekomarshrut bo‘ylab. Ekoturistik marshrutning muddati – ikki kun.

1-kun–Sangardak sog‘lomlashtirish markaziga joylashish. Sog‘lomlashtirish markaziga restoranida tushlik, Xojaipok sog‘lomlashtirish markazi va mahalliy aholi yashash tarizi bilan ta’nishish. Sangardak sharsharasi. Termiz shahridan 205 kilometr uzoqlikda, Sariosiyo tumani hududida joylashgan. Sangardakni haqli ravishda O‘zbekistonning eng go‘zal maskanlaridan biri deyish mumkin. Balandlikdan tushgan suv tomchilari tumanga o‘xshab havoga ko‘tariladigan milliardlab mikroskopik zarrachalarga parchalanadi. Sharshara atrofidagi qoyalar yashil yo‘sin bilan qoplangan.

2-kun–Sangardak sog‘lomlashtirish markazida nonushta, Hisor tog‘lari bo‘ylab sayr. Butun kun davomida, tushlik – tog‘ manzarasida, kechki ovqat – sog‘lomlashtirish markazida.

Bizga ma’lumki ekoturizm marshruti ishlab chiqishda. Ekologik turizm resurslari asosan uzoq masofalarda joylashganligidan turistlar zerikmasligi uchun yo‘l bo‘yi turistik ob’ektlarni ham turmarshrutga kiritiladi va yo‘l-yo‘lakay qiziqarli ekskursiyalar uyushtiriladi. Bunday marshrutlar majmuali mavzudagi turistik marshrutlar deyiladi. Demak turistik marshrutlarning mavzulari ko‘p hollarda turizmning turlari nomi bilan bog‘liq bo‘ladi.

3.3. Ekoturizm marshrutlarni ishlab chiqishda turistlar talabi bo‘yicha mavsumiylikni optimallashtirish yo‘llari

Turizmning o‘ziga xos xususiyatlarida biri mavsumiylik bo‘lib, u turistik korxonalarining bir me’yorda ishlashini qiyinlashtiradi, iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy-texnik tusdagi noqulay oqibatlarni keltirib chiqaradi⁴⁹.

Mavsumiylik – turistik oqimlarning unchalik katta bo‘lmagan vaqt oralig‘ida ma’lum joylarda to‘planishi xususiyati.

Iqtisodiy nuqtai nazardan mavsumiylik bir xildagi iqlimiy va ijtimoiy omillar ta’siri ostida turistik xizmatlar va tovarlarga turistik bozordagi talab va

⁴⁹ Pardaev A.X., Norchaev A.N., Rabbimov E.N. Ekologik turizm. -O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2011. -64 b.

taklifning har yili tebranib turishidir. Mavsum – turistlar oqiminig eng ko‘paygan vaqtidir. Ikki mavsum mavjud bo‘lganda (yozgi va qishki) ular orasida mavsumlararo vaqt bo‘ladi. Turistlar oqimining eng ko‘paygan vaqti “qizg‘in mavsum”, ular deyarli bo‘lmagan vaqt “o‘lik mavsum” deyiladi⁵⁰.

Mavsumiylikka oid noqulay ta’sirlar turistik jarayonning barcha tashkil qiluvchilariga – resurslar, joylashtirish vositalari, oziq-ovqat, transport, shuningdek xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar va turistlarning o‘zlariga ham taalluqlidir. Xizmat ko‘rsatuvchi xodimlardan yil davomida faqat bir necha oy foydalanish turistik tovarlar xizmatlarning tannarxidagi shartli-doimiy xarajatlarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Bu esa moslashuvchan narxlar siyosatini o‘tkazish imkoniyatini kamaytiradi, turistik tashkilotning xalqaro bozordagi harakatini qiyinlashtiradi, uning raqobatbardoshligini yomonlashtiradi.

Turistik bozorni tadqiq qilishda.. Bunda asosiy mavsumdan tashqari jalb qilinishi mumkin bo‘lgan potensial mijozlar soni va tarkibi aniqlanadi, tovarlar va xizmatlar taqdim etishga oid so‘rovlar o‘rganib chiqiladi. Olingan axborotdan mehmonxonalar va restoranlarning moddiy-texnika bazasini yagilash, tegishli tovarlarni yetkazib berish, turistlarga xizmat ko‘rsatish sifatini va uni tashkillashtirishlari takomillashtiriladi. Umuman mamlakat, rayonlar va turistik komplekslar bo‘yicha yil davomida turistlarni qabul qilishga tayyorgarlikni oshirish bo‘yicha tadbirlar. Mavsumiy davrni uzaytirish bo‘yicha barcha manfaatdor tashkilotlar o‘rtasida muvofiqlashtirishni amalga oshirish nazarda tutiladi. Turistlarning mamlakatga va alohida turizm rayonlariga qiziqishini oshirish maqsadida ularni qitisodiy rag‘batlantirish tizimi. Alohida tovarlar va xizmatlarga narxlar kamaytiriladi, chegirmalar qilinadi, turistik tashkilotlarning mavsum oralaidagi vaqtda faolligi uchun mukofotlar, rag‘batlantirishlar beriladi. Mavsumlar oralig‘ida turistlarni jab qilish uchun reklama faoliyatini kengaytirish. Alohida ekologik markazlar va ularda yilning turli davrlarida bo‘lishning foydaliligi tashviq qilinadi. Mavsumdan tashqari vaqtda turistlarni jalb qilish yoki

⁵⁰ Safarov B.Sh. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2016. -254 b.;

qo'shimcha mavsum (qishki) tashkil qilish. Turar joy va transportga baholar pasaytirilishi, arzonroq joylashishi ob'ektlarini ko'proq qurish evaziga yashash fondini kengaytirish ishlari tashkil qilinmoqda.

SHuningdek so'ngi vaqtlarda, turli sport musobaqalari, festivallar, konkurslar, ko'rgazmalar, ilmiy konferensiyalar, kongresslar va sh.k.larni tashkil qilish ham turistik mavsumni kengaytirishga ko'maklashmoqda. SHuninguchun bunday tadbirlarni iloji boricha turistlar uchun mavsum oralig'ida o'tkazish hozirda jahonda keng qo'lanilib kelmoqda.

Bu borada Surxondaryo viloyati, o'zining boy madaniy merosi va ajoyib manzaralari bilan mashhur. Viloyatda qadimiy qal'alar va yodgorliklardan tortib go'zal daryolar va tog'largacha bo'lgan turli diqqatga sazovor joylar mavjud. Shuningdek, u turli tillar, urf-odatlar va an'analarga ega bo'lgan jonli va rang-barang madaniyatga ega. Viloyat sayyohlar uchun ideal joy, chunki u boshqa hech bir joyda uchramaydigan noyob tajribani taqdim etadi. Ekoturizm marshuratlarni ishlab chiqishda turistlar talabi bo'yicha mavsumiylikni optimallashtirishda, turizm salohiyatini rivojlantirish borasida hali ko'p ish qilishi kerak. Bunda asosiy e'tibor infratuzilmani yaxshilash, marketing va targ'ibot kirish tuzumi imkoniyatlarini oshirishga qaratish kerak. Sayyohlarni jalb qilib mavsumiylikni optimallashtirishda, hududlarda marketing va targ'ib qilishda. Turizm obektlari haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lgan keng qamrovli veb-saytni ishlab chiqish va broshyuralar, plakatlar va videolar kabi reklama materiallarini yaratish. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda ishtirok etishni ko'paytirish, chunki bu mintaqa va uning diqqatga sazovor joylari haqida xabardorlikni oshirishga yordam beradi.

Ekoturizm marshuratlarni ishlab chiqishda turistlar talabi bo'yicha mavsumiylikni optimallashtirishda, sayyohlik salohiyatini oshirish uchun hududga kirish turizimimni kengaytirib turizm geografiyasini kengaytirish zarur. Bu avtobuslar va poezdlar kabi yaxshi transport imkoniyatlarini taqdim etish, shuningdek, aeroportlar va boshqa transport markazlariga kirishni yaxshilashni o'z ichiga oliadi. Ekoturizm marshuratlarni ishlab chiqishda turistlar talabi bo'yicha

mavsumiylikni optimallashtirishda turizm salohiyatini oshirish uchun bir qator strategiyalarni amalga oshirish kerak.

Birinchiidan, viloyatga kengroq tashrif buyuruvchilar uchun turizm bozorlariga chiqarilishi kerak bo'lgan rekreasiya resurslaridan foydalanishga infrastruktura yaratish. Hozirgi vaqtda vohaga asosan mahalliy sayyohlar tashrif buyurishadi, ammo bu hudud xalqaro mehmonlarni jalb qilish imkoniyatiga ega. Hududni targ'ib qilishda uning noyob madaniy merosi, tabiiy go'zalligi va tarixiy obidalariga e'tibor qaratish lozim. Bundan tashqari, mintaqani xalqaro turizm veb-saytlari, ijtimoiy media va boshqa raqamli marketing kanallari orqali targ'ib qilish kerak.

Ikkinchiidan, hududlarda turizmni qo'llab-quvvatlash uchun infratuzilma va xizmatlarni rivojlantirishi va kengaytirishi kerak. Bu muzeylar, yodgorliklar va boshqa madaniy ob'ektlar kabi turistik diqqatga sazovor joylarni rivojlantirish, shuningdek, mehmonxonalar va boshqa turar joylarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, Surxondaryoga tashrif buyuruvchilarning sayohat qilishlarini osonlashtirish uchun avtobuslar va poezdlar kabi transport imkoniyatlari qatnovini ko'paytirish grafigini ishlab chiqish kerak. Masalan: Termiz- Toshkent-Termiz, Denov Toshkent-Denov, Termiz-Andijon-Termiz yo'nalishlariga qo'shimcha Denov-Nukus-Denov poezdlar qatnovi yo'nalishlarini yo'lga qo'yilsa janub va shimol madaniyalarini o'rganishlar imkoniyatlari oshadi.

Uchinchiidan, vohaga turli turdagi tashrif buyuruvchilarni jalb qilish uchun bir qator tadbirlarni rivojlantirishi kerak. Bunga trekking, ot minish, qushlarni tomosha qilish va boshqa ochiq havoda sayr qilish kabi ekologik tadbirlarni shakillantirish. Bundan tashqari, viloyat aholisining mahalliy madaniyatga qiziquvchilarni jalb qilish uchun an'anaviy festivallar va tomoshalar kabi madaniy tadbirlarni rivojlantirishi kerak.

To'rtinchiidan, ekoturizm marshuratlarni ishlab chiqishda turistlar talabi bo'yicha turistlarning xavfsizligi va xavfsizligini yaxshilashga e'tibor qaratishi kerak. Buni mahalliy politsiya va xavfsizlik ko'chlarini yaxshiroq tayyorlash va resurslar bilan ta'minlash orqali amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari,

mintaqada har qanday tibbiy favqulodda vaziyatlarda sayyohlarga yanada yaxshi tibbiy muassasalar va xizmatlar ko'rsatishga e'tibor qaratish lozim.

Ushbu strategiyalarni amalga oshirish orqali, ekoturizm marshrutlarni ishlab chiqishda turistlar talabi bo'yicha mavsumiylikni optimallashtirishga, o'zining sayyohlik salohiyatini oshirishi va ko'proq tashrif buyuruvchilarni jalb qilishi mumkin. Bu nafaqat mahalliy iqtisodiyotga, balki hududning boy madaniy merosi va go'zal tabiatini asrab-avaylashga ham xizmat qiladi.

Umuman olganda, Surxondaryo viloyatining turizmni rivojlantirish salohiyati katta. Biroq, ushbu salohiyatni maksimal darajada oshirish uchun hudud infratuzilmasini yaxshilash, boy tarixiy madaniy moddiy rekreasiya resurslarini targ'ib qilish, noyob tajribalarni taqdim etish, sayyohlar xavfsizligi va xavfsizligini yaxshilashga e'tibor qaratishi kerak.

III-bob bo'yicha xulosa

Surxondaryo viloyatida turizmni rivojlantirishda ekoturizm resurslaridan foydalanish yo'llarini o'rganish natijasida quyidagi ilmiy xulosa va takliflar, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Hududlarda, ekoturizmni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda davlat-xususiy sherikchiligi imkoniyatlaridan foydalanish, turizmning rivojlanganlik darajasini baholovchi ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi. Shu bilan birga, Surxondaryoda ekoturizmni, strategik rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Ushbu strategiya quyidagi vazifalarni bajaradi: hududiy boshqaruv organlarining turistik va shahar infratuzilmasini yaxshilash jarayonida ishtirokini ortishi; budjet va boshqa moliyalashtirish manbalari orqali tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab quvvatlash; xizmatlarni shakllantirish.

2. Ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishda resurslardan samarali foydalanish yo'llari. Tahlil natijasida transport infratuzilmasi (yo'lovchi tashish hajmi)ning rivojlanishi mehmonxonalar soni ko'payishiga ijobiy ta'sir qilishi aniqlandi. Xususan, yil davomida yo'lovchi tashishning ko'payishi turizm

xizmatlarida, mehmonxonalar, umumiy ovqatlantirish va boshqa sohalarining soni sezilarli darajada ortishiga erishi aniqlandi.

3.Ekoturizm marshuratlarni ishlab chiqishda turistlar talabi bo'yicha turistlarning xavfsizligi va xavfsizligini yaxshilashga e'tibor qaratishi kerak. Buni mahalliy politsiya va xavfsizlik ko'chlarini yaxshiroq tayyorlash va resurslar bilan ta'minlash orqali amalga oshirishni bajarish. Bundan tashqari, mintaqada har qanday tibbiy favqulodda vaziyatlarda sayyohlarga yanada yaxshi tibbiy muassasalar va xizmatlar ko'rsatishga e'tibor qaratish lozimligi asoslandi..Shu bilan birga, turizm infratuzilmasining rivojlanishi, kiruvchi turistlar oqimi hamda mahalliy aholining respublika bo'ylab sayohatga chiqishlar soni ko'payishga, transport infratuzilmasining yaxshilanishi kabi omillar ta'sir ko'rsatadi degan xulosaga kelindi.

XULOSA

“Surxondaryo viloyati ekoturizm resurslaridan foydalanishning iqtisodiy, samaradorlik yo‘llari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosa, ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar taqdim etildi.

1. Tadqiqotlar natijasida ekologik turizmni rivojlantirish orqali xorijlik turistlar oqimini ko‘paytirish, ichki turizmga mahalliy aholini kengroq jalb qilish, turizm xizmatlari eksportini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratishda, turistik resurslarni turlarga va tasniflanishga ajratish, ularni o‘zora bog‘liq holda boshqarish, xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishda imkoniyat yaratadi.

2. Ekologik turizm sohasi, tabiiy resurslariga, innovasiya, investitsiyalar jalb qilib bir vaqta katta daromad olishga imkon beradigan yo‘nalishga aylanib bormoqda. Ekoturizm ob‘ektlarida aholini ish bilan ta‘minlash, ijtimoiy muhofaza qilish, ekologik turizm zonalarida kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish orqali qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish, turistik infratuzilmalarni jahon talablariga javob beraoladigan moddiy – texnik, axborot–tahliliy bazasini yaratish, “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini sohalarga faol joriy etish orqali 2026 yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish choralari ko‘rishga sharoit yaratadi.

3. Tadqiqot davomida turizm infratuzilmasini shakllantirishda ekoturistik resurslarning Surxondaryo viloyati iqtisodiyotidagi o‘rni o‘rganildi. O‘rganish natijasida ekoturizm resurslari shahar tashqarisida joylashganligi, bu joylardagi turizm infratuzilmalarini yagona elektron reestrqa kiritish tartibini joriy etish. Mavjud salohiyatlardan to‘liq foydalanilib, iqtisodiy manfaati ko‘rishida, mahalliy aholi tomonidan tabiatning noyob ne‘matlarini saqlab qolishga erishiladi.

4. Surxondaryo viloyatidagi tog‘ va tog‘oldi turizm zonalarida tashkil qilingan tadbirkorlik sub‘ektlarida masofaviy (onlayn) faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlarini shakllantirish, hamda ularning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, litsenziya va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlarni olish tartib-tamoillarini inobatga

olgan holda soddalashtirish. Turizmning, turoperatorlik, ekskursovod (gid) ishlarini tashlil etadigan faoliyat turlariga faqat malakaviy talablarni belgilash orqali bino va inshoot, xona, asbob-uskuna, texnika vositalari, boshqa jihozlar hamda ularga bo‘lgan shartlarni bekor qilish, turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlarini xolis baholashni iqtisodiy SWOT tahlilini oshiradi.

5. Surxondaryo viloyatidagi ekoturistik ob‘ektlarning holatini baholashda 2022—2026 yillarga mo‘ljallangan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalar doirasida ishlarning bajarilishni nazarda tutuvchi yangi tartiblar tahlil qilindi. Taraqqiyot strategiyasida hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha dasturlar asosida har yili barcha tuman va shaharning muammo va imkoniyatlari chuqur o‘rgangan holda hududlar kesimida taraqqiyot dasturlari ishlab chiqildi.

6. Surxondaryo viloyatida ekoturizm infratuzilmasining rivojlanishi, ichki va xalqaro turizm tahlili shuni ko‘rsatdiki. Viloyat hududidagi turizm salohiyati yuqori bo‘lgan, mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha doimiy ravishda yangi-yangi turizm hududlarini o‘rganish va tahlil qilish natijasida ularni rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.

7. Hududlarda, ekoturizmni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning ijro etilishi jarayonini jamoatchilik tomonidan kuzatib borish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida muntazam e‘lon qilib borish tizimi yaratildi.

8. Ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishda, turizm sohasi rivojlangan mamlakatlar tajribasini inobatga olgan holda yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish ishlari o‘rganildi. Transport infratuzilmasi (yo‘lovchi tashish hajmi)ning rivojlanishi mehmonxonalar soni ko‘payishiga, umumiy ovqatlantirish va boshqa sohalarining soni sezilarli darajada ortishiga erishiladi.

9. Ekoturizm marshrutlarni ishlab chiqishda turistlar talabi bo‘yicha turistlarning xavfsizligini yaxshilashda, marshurut harakatini xalqaro standartlarga

moslashtirish, harakatni boshqarish tizimini to'liq raqamlashtirish, harakatlanish uchun barcha ishtirokchilarga munosib sharoitlarni yaratish va xavfsizlikni taminlashda jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta'minlashgaga e'tibor qaratishi kerak. Buni mahalliy politsiya va xavfsizlik ko'chlarini yaxshiroq tayyorlash, mintaqada har qanday tibbiy favqulodda vaziyatlarda sayyohlarga yanada yaxshi tibbiy muassasalar va xizmatlar ko'rsatishga e'tibor qaratish, turizm infratuzilmasining rivojlanishi, kiruvchi turistlar oqimi hamda mahalliy aholining respublika bo'ylab sayohatga chiqishlar soni ko'payishga, transport infratuzilmasining yaxshilanishi asosiy omillar degan xulosaga kelindi.

AMALIY TAVSIYALAR

1 Viloyatning tarixiy arxieologik turizm maskanlari, Dalvarzintepa, Kampirtepa (Oks Aleksandriyasi), Fayoztepa, Qoratepa kabi buddaviylik diniga aloqador ob'ektlar atrofida turizm infratuzilmasini shakllantirib, "Yashil makon" "Yashil hudud" umummilliy loyihasi doirasida turistik namoyish ob'ektiga aylantirish. Ob'ektlar atrofida, tarixiy ijtimoiy salohiyatini aks etiruvchi muzeylar tashkil etish. SHu orqalm ziyorat turizmi yo'nalishida yangi turistik maxsulotlar ishlab chiqish va yo'nalishlarni ishga tushirish imkoniyati oshiriladi.

2.Viloyatning tog' va tog'oldi zonalaridagi tabiiy-rekreatsiya salohiyati yuqori hududlarda kichik turizm zonalarini tashkil etib.Mahalliy turizm brendlarini yaratish ishlarini tashkil qilish. Masalan, boy o'tmishga ega xalqimizning takrorlanmas urf-odat, an'analar, xalq ijodiyoti namunalari, hunarmandchilik mahsulotlarini tayorlash usullari, folkrolshunoslik sa'nat tarixi, brendi ostida tarixiy ekoturizm marshrutlarini tashkil etish, tandir go'shti, tandir somsa kabi mahalliy taomlar asosida "gastronomik ko'chalar" tashkil etish orqali gastronomik turizm brendlarini shakllantirish ishlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

3. Viloyatda ichki turizmning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishda bir necha usullari tadqiq etildi.So'nggi 7 yilda davlatimizda "ijtimoiy davlat" tamoyiliga alohida e'tibor qaratildi.Xususan ta'limga, o'qituvchilarga e'tibor

oshdi, oliy ta'limda qabul soni va yo'nalishlar ko'paydi. Lekin, maktablardagi sifat hali talab darajasiga chiqqani yo'q. Masalan, 11 yil maktabda o'qigan bola chet tilini mukammal bilmaydi. Sharoit va mutaxassislar yo'qligi sababli yoshlarni kasblarga qiziqtirish muhiti shakllanmayabdi. Natijada maktab bitiruvchilarining 50 foizi mehnat bozoriga hech qanday kasbga ega bo'lmasdan kirib kelmoqda. Aynan turizmni barqaror rivojlantirish mexanizmi takomillashtirishda, tuman va mahallalarda turizm resurslarining xususiyatidan kelib chiqib, 2030 yilgacha bo'lgan prognozlarini ishlab chiqishda. Maktab bitiruvchilariga, turizm mutaxassisligini ta'momlagan oliy ma'lumotli mutaxassislarni shtat jadvali asosida, turizm xizmatlari, kasblarga o'rgatilish fan to'garaklarini tashkil qilishni amaliyotga tadbiq etilishi kerak.

4. Termiz shahri va viloyatiga keluvchi xorijiy va mahalliy sayyohlarga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida. Termiz shahri avtovakzaidan, Sariosiyo tumaniga ("Sangardak" erkin turistik zonasiga) grafik asosida qatnovchi har kuni ikkita avtobus harakati yo'lga qo'yish kerak. Qatnov masofasi 205 km bo'lgan yo'nalishda yo'lovchilar belgilangan manzilga 3 soat 10 daqiqada etib boradi. Avtobuslar mavsumga qarab, may, iyun, iyul va avgust' oyilarida ertalab soat 5:00 da jo'nab, Sangardakka soat 8:00 da etib boradi. Kejki vaqt soat 17:00 da Sangardakdan jo'nab, 20:00 da esa Termiz shahri avtovakzaliga etib kelish kerak. Qatnovlarni Yutong avtobuslarida amalga oshirish, mijozlarga qulaylik yaratadi. Ushbu yo'nalishda yo'l narxi 45 000 so'm etib belgilansa, viloyatiga keluvchi xorijiy va mahalliy sayyohlarga qo'shimcha qulayliklar yaratiladi.

5. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy tavsiyalar kelgusida amaliyotga tadbiq etilishi turizmni barqaror rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishda, ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishda, yalpi hududiy maxsulot tarkibida turizm xizmatlari ulushini oshirishda, turizm xizmatlari ko'rsatish samaradorligini oshirishda hamda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi ustuvor vazifalarini amalga oshirishga o'z xissasini qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida:gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: 03/19/549/3446-son. 19.07.2019 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldagi “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash choratadbirlari to‘g‘risida” PQ-3514-sonli Qarori // lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi “Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4095-son Qarori // lex.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 16 iyundagi “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4752 son Qarori // lex.uz

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5113-son Qarori // lex.uz

6 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni // lex.uz

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy choratadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5326-son Farmoni // lex.uz

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-son Farmoni // lex.uz

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // lex.uz

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Iichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi ma’ruzasi. 19 sentyabr 2022 yil / Yangi O‘zbekiston. 2022 yil 19 sentyabr

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 maydagi “Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 324-sonli Qarori // lex.uz

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 4 oktyabrdagi “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk ob’ektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 846-son Qarori // lex.uz

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 27 maydagi “Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 332-sonli Qarori // lex.uz

II. Foydalanilgan assosiy adabiyotlar to‘plamlar

14. Parдав M.Q., Atabaev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. Samarqand: SamISI, 2016. -137 b.;

15. Tashmurotov T., Agzamov S. Marketing mejdunarodnogo turizma T-2008.-46 b;

16. Parдав A.X., Norchaev A.N., Rabbimov E.N. Ekologik turizm. -O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2011-84-116-145 b

17. Gulyamov S.S., Jumaev N.X., Raxmanov D.A., Toshxodjaev M.M. Ijtimoiy sohada investitsiyalarning samaradorligi. Monografiya.– T.: IQTISODIYOT, 2019. –203 b.

18. Tuxliev N., Abdullaeva T. Menedjment i organizatsiya biznesa v turizme Uzbekistana. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. -2021. -367 s.;

19. Aslanova D.X. Modeli formirovaniya turistskogo klastera za rubejom. //Servis, 2013. - №1. - S: 4-9;

20. Ibadullaev N.E., Abduxamidov S.A. Mintaqaviy turizm. O‘quvslubiy majmua. Samarqand: SamISI. – 2015. – 169 b.

21.N.Navruz-zoda B., Ibragimov N.S., Navruz-zoda Z.B., Navruz-zoda Sh.B. Turistik hudud raqobatbardoshligi. Monografiya. Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdoni nashriyoti, 2017 -156 b.;

22.Pardaev O.M. Menejment. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2019. –248 b.; Abduvohidov A.M. Turizmda elektron biznes. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU. Iqtisodiyot, 2020. -189 b.;

III. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

23.Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida). DSc. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -S.: SamISI, 2017. -265 b.;

24.Eshtaev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O‘zbekiston Respublikasi turizm tarmog‘i misolida). DSc. dissertatsiya avtoreferati – Samarqand. 2019.

25.M.T. Alieva. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari: iqt. fan. dok. diss. avtoref. – S.: SamISI, 2019. -77 b; Ibadullaev N.E. Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misolida). – iqt. fan. nom. diss. avtoref. – Samarqand, 2010.

26.Turaev B.X. Razvitie organizatsionno-ekonomicheskix mexanizmov funkcionirovaniya regionalnogo turizma: -dok. diss. avtoref., 2011.– 38 s.;

27.Safarov B.Sh. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2016. -254 b.;

28.Pardaev M.Q., Atabaev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. - Samarqand: SamISI, 2016. -137

29.Narchaev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari DSc. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: TDIU, 2021 - 246 b.

30.Z.N.Turayev Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari. Iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiyasi –Tashkent-2022 .

31.Robert.L. Environmental Restoration and Design for Regreastion and Ecotourism: France, November 16,2011 by CRC Press, 312 Pagres:

32.David A. Ecotourisin, Fennell-Routledge 3at edition (December 13, 2017) Simultaneously published in the USA and Canadu by Routledge 304 p:

33. John Neil, Rouledge 2nd edition (March 25,2019) 304 p.

34.Храбовченко. В.В. “Экологический туризм учеб метод пособие. М. Финансы и статистика 2014 й. 208 с

35.Биржаков. М.Б. Введение в туризм. СПб, Издательский Торговый дом «Герда» 2018, 576 с.,

36.Боголюбов В.С , Орловская В.П. «Экономика туризма» - М.Издательский центр «Академия» 2015-151 с.,

37.Дроввич. А..П. «Маркетинговые исследования в туризме», учебное пособие –СПБ; Питер-2018-384 с;

38.Кабушкин. Н.И. «Менеджмент туризма» -Минск Новое знание 2012.- 407 с;

39.Квартальнов. В.А. Туризм; учебник –М; Финансы и статистика 2013 й. 320 с,

40.Сениню Б.С. Организация международного туризма. –М; Финансы и статистика 2014 й. 379 с,

41.Чудновский. А.Д. Управлений индустрней туризма России в современных условиях; учебное пособие. –Ростов н Д; Феникс, 2018.-503 с

IV. Internet tarmogʻi veb-saytlari va manzillari

42. www.aseantourism.travel

43. www.batona.net/80341-camye-deshevye-hostely-po-vsemu-miru-2-foto.html

44. www.businessinsider.com

45. www.crescentrating.com (global-muslim-travel-index-2019)

46. www.data.oecd.org
47. www.ec.europa.eu
48. www.e-unwto.org
49. www.gazeta.ru 1
50. www.ifc.org
51. www.lex.uz
52. www.media.unwto.org
53. www.meros.uz
54. www.nationalgeographic.co
55. www.unwto.org/un-tourism-news-fotur-edition

ILOVALAR

1.2.1-ilova

O‘zbekiston Respublikasining davlat tomonidan muhofaza etiladigan tabiiy hududlari⁵¹

№	Tabiiy landshaft	Muhofaza maskani	Maydoni, ga	Tashkil etilgan yil
1	2	3	4	5
		Davlat qo‘riqxonalari	175536	1971
1	Baday – to‘qay	Amudaryo pasttekisliklari to‘qay ekotizimlari	6462	1983
2	Hisor	Hisor tizmasi tog‘ ekotizimlari	80986	1959
3	Zomin	Turkiston tizmasi tog‘ ekotizimlari	21735	1975
4	Zarafshon	Zarafshon daryosi o‘rta oqimi to‘qay ekotizimlari	2352	1971
5	Qizil-qum	Amudaryo o‘rta oqimi va qo‘shni sahrolar to‘qay ekotizimlari	10311	1975
6	Nurota	Nurota tizmasi tog‘ ekotizimlari	26895	1971
7	Surxon	Qo‘hitang tog‘ tizmasi ekotizimlari va Amudaryo o‘rta oqimi to‘qay ekotizimlari	26895	1975
8	Kitob	Noyob geologik kon	3938	1987
Milliy bog‘lar				
1	Ugam – Chotqol milliy davlat bog‘i	G‘arbiy Tyan’-shan ekotizimlari	574590	1990
2	Zomin milliy bog‘i	Turkiston tizmasi ekotizimlari	24110	1977
Davlat tabiat yodgorliklari				
1	Yozyovon sahrosi	Noyob tabiat yodgorliklari	1000	1991
2	Mingbuloq tumani tabiat yodgorligi	O‘simlik va hayvonot dunyosi	1000	1991
3	Chust tumani tabiat yodgorligi	O‘simlik va hayvonot dunyosi	96	1990
Alohida tabiiy ob‘ektlar va komplekslarni saqlash, ko‘paytirish va tiklash uchun hududlar				
Buyurtmaxonalar			1503206	
1	Oqtog‘	Noyob va yo‘qolib borayotgan hayvon va o‘simliklar	15400	1997
2	Dengizko‘l	Hayvonot va o‘simliklar olami	50000	1990
3	Qarnobcho‘l	Hayvonot va o‘simliklar olami	40000	1992
4	Qoraqir	Hayvonot va o‘simliklar olami	30000	1992
5	Qo‘shrabod	Hayvonot va o‘simliklar olami	16300	1992
6	Muborak	Noyob va yo‘qolib borayotgan hayvon va o‘simliklar	264469	1997
7	Sarmish	Hayvonot va o‘simliklar olami	5000	1997
8	Sayg‘ochi	Yovvoyi hayvonlar	1000000	1997
9	Sechanko‘l	Baliqlar	7037	1998

⁵¹ O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat ko‘mitasi ma‘lumotlari asosida

10	Sudoche	Yovvoyi hayvonlar	50000	1991
11	Xubara	Tuvaloq va uning yashash joylari	25000	1998
		Tabiiy parvarishxonalar	7122	
1	«Jayron» ekomarkazi	Jayron, qulon, Prejevalsk otlari	7122	1976
2	Baliq xo'jaligi hududlari	Suv havzalaridagi antropogen tizimlar	-	
3	Muhofaza etiladigan landshaftlar	Alohida tabiiy ekotizimlar	1004005	
4	Kurort tabiati hududlari	Antropogen ekotizimlar	338	
5	Rekreatsiya hududlari	Antropogen va tabiiy ekotizimlar	70	
6	Davlat biosfera rezervatorlari	Tabiat ekotizimlari	35724	
7	Chotqol davlat biosfera qo'riqxonalar	Chotqol tog' tizimi ekotizimlari	35724	1947

2.2.1-Ilova.

Surxondaryo viloyatidagi me'morchilik turistik yodgorliklari obyektlari ⁵²

№	Turistik obyekt nomi	Obyekt turi	Tarxi manbasi	Joylashgan joyi	Turistik obyekt ahamiyati
1	Xo'ja Rushnoyi maqbarasi	Maqbara	XI asr	Angor tumani	mahalliy
2	Machay masjidi	Masjid	XVIII-XIX asr	Boysun tumani	mahalliy
3	Xonaqoh masjidi	Masjid	XVIII-XIX asr	Boysun tumani	mahalliy
4	Oqmachit	Masjid	XVIII-XIX asr	Boysun tumani	mahalliy
5	Sayid Otaliq Madrasa	Madrasa	XVI	Denov tumani	Respublika
6	Denov qal'asi	Qal'a	XVI	Denov tumani	Respublika
7	Jarqo'rg'on minorasi	Minora	XII	Jarqo'rg'on tumani	Respublika
8	Xo'ja Samandar Termiziy maqbarasi	Maqbara	XVIII asrlar	Jarqo'rg'on tumani	mahalliy
9	Takiya ota Maqbarasi	Maqbara	XII	Qiziriq tumani	mahalliy

⁵² Surxondaryo viloyati Turizm boshqarmasi. Termiz, – 2022

10	Iskandar ko‘prigi	Ko‘prik	XVI	Qumqo‘rg‘on tumani	Respublika
11	Sayyid Jamoliddin va Sayyid Kamoliddin At-Termiziy majmuasi	Majmua	XIX asrlar	Qumqo‘rg‘on tumani	mahalliy
12	So‘fi Olloyor masjidi	Masjid	XVI asr	Oltinsoy tumani	Respublika, xorijiy
13	Muzrabot ota Maqbarasi	Maqbara	XV	Muzrabot tumani	mahalliy
14	Otaulla Sayid Vaqqos Maqbarasi	Maqbara	XVI asrlar	Sherobod tumani	mahalliy
15	Abu iso at-Termiziy Maqbarasi	Maqbara	XII asrlar	Sherobod tumani	Respublika, xorijiy
16	Muhammad Hakim Termiziy maqbarasi	maqbara	IX — XV asrlar	Termiz tumani	Respublika, xorijiy
17	Zul-Kifl maqbarasi	maqbara	XI-XII asrlar	Termiz tumani	Respublika, xorijiy
18	Kokildorota xonaqosi	xonaqo	XVI asrlar	Termiz shahri	Respublika, xorijiy
19	Qirqqiz saroyi	Saroy	X-XIV-XV asrlar	Termiz shahri	Respublika, xorijiy
20	Sulton-Saodat maqbaralar	majmui maqbara	X — XVII asrlar	Termiz shahri	Respublika, xorijiy
21	To‘rt og‘iz gumbaz maqbarasi	maqbara	XI-XII asrlar	Termiz tumani	mahalliy
22	O‘yiq gumbaz maqbarasi	maqbara	XI-XII asrlar	Termiz tumani	mahalliy
23	Kaftarxona minorasi	minora	XI-XII asrlar	Termiz tumani	mahalliy
24	Chorgumbaz maqbarasi	maqbara	XI-XII asrlar	Termiz tumani	mahalliy
25	Momoxol masjidi	masjid	XVI asrlar	Termiz tumani	mahalliy
26	Katta masjid	masjid	XVI asrlar	Termiz tumani	mahalliy
27	Zo‘rmola minorasi	minora	I-II asrlar	Termiz tumani	Respublika, xorijiy
28	Oqostona bobo Maqbarasi	Maqbara	X-XI	Uzun tumani	Respublika,
29	Aleksandr Nevskiy Xristian ibodatxonasi	Ibodatxona	XIX asr	Termiz shahri	Respublika, xorijiy
30	Murchbobo masjidi	Masjid	1916 yil	Termiz shahri	Respublika,
31	Termiz Arxeologiya muzeyi	Muzey	2002 yil	Termiz shahri	Respublika, xorijiy

32	“Gubernator uyi” (Viloyat arxiv binosi)	Uy	XIX asr	Termiz shahri	Respublika, xorijiy
33	Aloqa binosi	Uy	XIX asr	Termiz shahri	Respublika,
34	Arxeologlar bazasi binosi uy	Uy	1980 yil	Termiz shahri	Respublika,

2.2.2-Ilova.

Surxondaryo viloyatidagi diqqatga sazavor turistik yodgorlik joylar ⁵³

№	Madaniy meros obyekt nomi	Tarxi manbasi	Joylashgan joyi	Turistik obyekt ahamiyati
1	Bibishirin maqbara	XVI asr	Boysun tumani	mahalliy
2	Hazrati Kamar Aziz ziyoratgohi	XVI asr	Boysun tumani	mahalliy
3	Hazrati Sulton Vali Balogardon ziyoratgohi	XVI asr	Boysun tumani	mahalliy
4	Xo‘ja Qo‘chqor ota ziyoratgohi	XVIII asr	Boysun tumani	Respublika
5	Hazrati Eshon bobo ziyoratgohi	XVIII asr	Boysun tumani	mahalliy
6	Mirzaqul So‘fi ziyoratgohi	XVIII asr	Boysun tumani	mahalliy
7	Pulhokim ko‘prigi	Aniqlanmagan	Boysun tumani	mahalliy
8	Hazrati Eshon bobo bulog‘i	Aniqlanmagan	Boysun tumani	mahalliy
9	Yonarbuloq	Aniqlanmagan	Boysun tumani	Respublika
10	Xo‘jamayxona	Aniqlanmagan	Boysun tumani	Respublika
11	Shifobuloq	Aniqlanmagan	Boysun tumani	mahalliy
12	Sayrob chinori	XVI asr	Boysun tumani	Respublika, xorijiy
13	Omonxona	XVI asr	Boysun tumani	Respublika, xorijiy
14	Obidaryo	Aniqlanmagan	Boysun tumani	mahalliy
15	Jiydaliota	XVIII asr	Boysun tumani	mahalliy
16	Tangisar darasi	Aniqlanmagan	Boysun tumani	mahalliy
17	Uch uzma ota	Aniqlanmagan	Boysun tumani	mahalliy
18	Xo‘ja Gurgur ota gori	Aniqlanmagan	Boysun tumani	mahalliy

⁵³ Surxondaryo viloyati Turizm boshqarmasi. Termiz, – 2022

19	Xo'ja Attor Valiy Olovuddin qadamjosi	XIV asr	Denov tumani	Respublika
20	Lag'monotatapa ziyoratgohi	XVI asr	Denov tumani	mahalliy
21	Qoraxonbobo ziyoratgohi	XVI asr	Denov tumani	mahalliy
22	Sulton Sanjar Moziy maqbarasi	XVI asr	Denov tumani	mahalliy
23	Xo'ja Alouddin Attor Valiy ziyoratgohi	XIV asr	Denov tumani	Respublika, xorijijiy
24	Haydarqul Hoji bobo ziyoratgohi	XIX asr	Denov tumani	Respublika
25	Jangalmazortepa, Ruhshonbobo ziyoratgohi	XVIII asr	Denov tumani	mahalliy
26	Xo'jjai pokota	XVI asr	Oltinsoy tumani	Respublika, xorijijiy
27	Mavlono Zohid ziyoratgohi	XVIII asr	Oltinsoy tumani	Respublika, xorijijiy
28	So'fi Olloyor ziyoratgohi	XVIII asr	Oltinsoy tumani	Respublika, xorijijiy
29	Qo'tirbuloq shifobaxsh suvi	Aniqlanmagan	Oltinsoy tumani	mahalliy
30	Hazrati Eshon bobo ziyoratgohi	Aniqlanmagan	Sariosiyo tumani	mahalliy
31	Sharshara (tabiat yodgorligi)	Aniqlanmagan	Sariosiyo tumani	Respublika, xorijijiy
32	Nilu un tegirmoni	XIX asr	Sariosiyo tumani	mahalliy
33	Mingchinor	Aniqlanmagan	Sariosiyo tumani	mahalliy
34	Xo'jayikon tuz g'ori	X asr	Sherobod tumani	Respublika, xorijijiy
35	O'rinbuloq shifobaxsh suvi	X asr	Sherobod tumani	Respublika, xorijijiy
36	Sulaymon ota ziyoratgohi	XVI asrlar	Sherobod tumani	mahalliy
37	Xazrat Atham sahobasi maqbarasi	XVI asrlar	Sherobod tumani	mahalliy
38	Xo'jaqiyomiddin ota	XVI asrlar	Sherobod tumani	mahalliy
39	Tolliota ziyoratgohi	IX — XIV asr	Sho'rchi tumani	mahalliy
40	Hojibobo ziyoratgohi	X — XII asrlar	Sho'rchi tumani	mahalliy
41	Mullobobo eski masjidi	XV asrlar	Sho'rchi tumani	mahalliy
42	Sovjironbobo ziyoratgohi	XV-XVI asrlar	Sho'rchi tumani	mahalliy
43	Qorashayxbobo ziyoratgohi	XII — XV asrlar	Sho'rchi tumani	mahalliy

